

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVESITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

LOGOPSIXOLOGIYA

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassalarining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, filologiya va psixologiya ta'lim yo'nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil 30-dekabrdagi 5– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

BuxDPI “Pedagogika” kafedrası

dotsenti, p.s.f.f.d.(PhD) **J.Dj. Ramazonov**

Taqrizchilar:

U.S.Jumayev- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.A.Qosimov- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2025 yil 30-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

- I ISHCHI DASTUR
- II MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN
INTREFAOL O‘QITISH METODLARI
- III NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
- IV AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
- V GLOSSARIY
- VI ADABIYOTLAR RO‘YXATI
- VII NAZORAT SAVOLLARI

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-targ‘ibot, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta‘lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi «Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-5789-sonli, 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etiladi.

Logopsixologiya modulining ishchi o‘quv dasturi maktabgacha ta‘lim muassasalari defektologlarini (logopedlarni) qayta tayyorlash kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, tinlovchilar – maktabgacha ta‘lim muassasalari xodimlariga logopsixologiya fanining dolzarb masalalari, mazmun va mohiyatini ochib berishni nazarda tutadi.

Logopsixologiya kursining asosiy maqsadi va vazifasi kurs tinglovchilariga nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ruhiy jarayonlarni o‘rganuvchi psixologik test, usul, uslubiyatlar haqida bilimlar berish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Berilgan bu bilim va tushunchalar, birinchidan, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari haqida tasavvurlarni boyitsa, ikkinchidan, tinglovchilarning bu sohaga oid dunyoqarashi va e‘tiqodini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi

Bu kursni o‘rganish natijasida kurs tinglovchilari quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashi lozim:

- nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari;
- ruhiy jarayonlarni tekshirish uslublarini bilish;
- uslubiyatlar asosida bolalar ruhiy jarayonlari kamchiliklarini aniqlay bilish;
- nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning shaxsiy sifatlarini taqqoslash;
- o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish.

Ushbu kursni o‘qishda umumiy psixologiya, bolalar psixologiyasi, o‘smirlar psixologiyasi, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, logopediya fanlaridan olingan bilimlarga asoslaniladi.

Logopsixologiya kursida jadvallar, ruhiy jarayonlarni tekshirish uslubiyatlari

mujassamlashgan albom, texnik vositalardan foydalaniladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi – tinglovchilarda nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlari xususiyatlari, bunday bolalar shaxsining turli faoliyatda rivojlanish xususiyatlari, ruhiy jarayonlarni turli usul va uslubiyatlar asosida tekshirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarda maktabgacha ta‘limda zamonaviy logopedik yordamni amalga oshirish uchun zarur psixologik bilimlarni shakllantirish, ko‘nikmalarni tarkib toptirish;

- tinglovchilarni logopsixologiya nazariyasi hamda uning usullarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

- Logopsixologiya o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi:**

- logopsixologiya umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi ekani; ruhiy va jismoniy nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlari xususiyatlari; ruhiy va jismoniy nuqsoni bo‘lgan bolalar shaxsining turli faoliyatda rivojlanish xususiyatlari; rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlari, faoliyatining xususiyatlarini *bilishi*;

- nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar shaxsining sifatlarini o‘rganish va ularga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish; rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga differensial yondashish; rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixik jarayonlarini o‘rganishning shakl va metodlarini to‘g‘ri tanlay olish; rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan muloqot o‘rnatish *ko‘nikmasiga*;

- nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarni ta‘lim jarayonida korektsiyalash *malakalariga ega bo‘lishi*;

- maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyachilariga qo‘yiladigan pedagogik talablar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish;

- mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

- tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va kasbga yo‘naltirish kompetensiyalarini egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Maktabgacha ta‘limda zamonaviy yondashuvlar moduli nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy dars-mashg‘ulotlarida maktabgacha ta‘limga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar haqida ma‘lumotlar beriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda yakka, frontal mashg‘ulotlarga qo‘yilgan pedagogik talablar o‘rgatiladi.

Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta‘lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi maxsus psixologiya, logopediya, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi, logopedik o‘yin, logopedik ritmika

o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modulda maxsus pedagogika, maxsus psixologiya, logopediya, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi, logopedik o'yin, logopedik ritmika o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda o'rganilgan mazmun yo'nalishlari va uslubiy jihatlarini maktabgacha ta'limga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Tinglovchilarni maktabgacha ta'limda zamonaviy psixologik yondashuvlar va innovatsiyalarni o'rgatish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

1.1. Logopsixologiya

№	Fan mavzulari	Hammasi	Jami o'quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta'lim
				nazariy	amaliy	ko'chma mashg'ulot	
1	Logopsixologiya kursining predmeti, maqsad va vazifalari	4	4	2	2	-	-
2	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning tavsifnomasi	4	4	2	2	-	-
3	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining xususiyatlari	4	4	2	2	-	-
4	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar idrokining xususiyatlari	4	4	2	2	-	-
5	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar mnestik faoliyatining xususiyatlari	6	4	2	2	-	2
6	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkurining xususiyatlari	6	4	2	2	-	2
7	Nutqiy kamchiliklarning turli shakllarida muloqotning o'ziga xosligi	4	2	-	2	-	2
8	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar	6	4	2	2	-	2
9	Nutqida buzilishlar bo'lgan bolalar shaxsi va shaxslararo munosabati xususiyatlari.	4	2	2	2	-	2
10	Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar motorikasining xususiyatlari.	6	4	-	2	-	2
11	Maktabgacha ta'lim muassasalarida defektolog (logoped)ning ish hujjatlarini o'rganish.	2	2	-	-	2	-

12	Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish.	2	2	-	-	2	-
Jami:		52	40	16	20	4	12

1-mavzu: Logopsixologiya kursining predmeti, maqsad va vazifalari

(2 soat)

Reja

1. Logopsixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Logopsixologiya fanining rivojlanish tarixi
3. Logopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

1. Logopsixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Logopsixologiya maxsus psixologiya fanining bir bo'limi bo'lib, nutq nuqsoni mavjud bolalar ruhiyati va bu nuqsonni psixokorreksiya jarayoni tamoyillarida, korreksion-tarbiya jarayonida hisobga olinishi ko'zda tutilgan shaxs sifat va xususiyatlarining o'ziga xosligi kuzatiladi.

Logopsixologiya maxsus psixologiya fanining asosiy tarkibiy qismi sifatida logopediya va psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari asosida takomillashib bormoqda.

Logopsixologiya fanining kommunikativ konsepsiyaga o'tishi nutqiy faoliyatning paralingvistik vositalarini (intonatsiya, temp, modulyasiya, fonatsiya), muloqotning komponenti (mimika, imo-ishora, to'g'ridan-to'g'ri sensor va jismoniy kontaktlar), kommunikatsiya jarayonining turli shakllarini chuqur va puxta o'rganish, tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Bu tahlil insonlar munosabatining psixologik va ijtimoiy-psixologik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Logopsixologiya fani maxsus psixologiya fanining yangi tarmog'i hisoblanadi. nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator ma'lumotlar yig'ildi. Nutq nuqsonini o'rganuvchi olimlar L.R.Mo'minova, M.YU.Ayupova, X.M.Po'latova, D.A.Nurkeldieva, M.P.Xamidova va boshqalar o'z diqqatlarini nutq nuqsonlarining mexanizmlari sabablari, alomatlari va bartaraf etish usullarining ilmiy-metodik asoslarini yaratishgan. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar psixik rivojlanishini o'rganishga esa kam ahamiyat berganlar. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, turlicha nutq buzilishlari bo'lgan bolalar bilan korreksion- logopedik ishlarni olib borish davomida har bir nutq kamchiliklariga aynan o'zigagina xos bo'lgan ruhiy jarayonlarni va xususiyatlarni o'rganish logopsixologiya fanining asosiy maqsadidir. Logopsixologiya fanining ob'ekti – tug'ma yoki orttirilgan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Logopsixologiya fanining vazifalari:

- nutqida turli nuqsoni bo'lgan shaxslarning psixik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;
- nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni

korreksiyalash, bartaraf etish;

- nutq nuqsonlarining differensial diagnostik metodlarini ishlab chiqish;
- nutq nuqsonlarida hissiy-irodaviy sohasi va shaxslararo munosabatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish metodlarini ishlab chiqish;
- nutq nuqsoniga ega shaxslarning bilish faoliyatidagi va hissiy- irodaviy sohasidagi kamchiliklarini oldini olish uchun mo'ljallangan tadbirlarni ishlab chiqish.

Nutq buzilishlari bilan fiziologlar, nevropatologlar, logoped, psixolog va lingvistlar shug'ullanadilar.

L.S.Vigotskiy fikricha, nutqiy faoliyatni fiziologik jarayon sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Kommunikativ nazariyaning nuqtai nazaridan esa nutq buzilishi – verbal kommunikatsiyaning buzilishidir.

Logopsixologiyada kommunikatsiyaga tizimli yondoshuv quyidagilarga moslanadi:

- kommunikativ tizimning funksiyasi nazariyasiga;
- kommunikativ faoliyat tahlili nazariyasiga;
- kommunikativ nazariya qobiliyatlarini rivojlantirishning tizimli- genetik nazariyasiga.

Bu nazariyalar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- muloqot jarayonining ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi, kommunikativ jarayonni o'tkazishni tizimli tashkil etish;
- kommunikativ faoliyatning yuqori darajasi, nutqiy-fikrlash jarayonlarining funksional butunligi, kommunikatsiya jarayonida tizimlararo munosabatlar;
- kommunikativ tizim, kommunikativ qobiliyat tizimi genezisi muloqotning individual uslublari differentsiatsiyasi;
- logopsixologiya faniga bog'liq holda shart-sharoitlarning mavjud bo'lishi;
- nutqiy buzilishlarni bir qator tekshirishlari uchun psixodiagnostik tizim;
- nutqiy buzilishlar rehabilitatsiyasi uchun psixokorreksion texnologiyalarni yaratish, muloqotning emotsional, nutqiy ekspressiv, kommunikativ, ijtimoiy adaptatsiyasini rivojlantirish;
- rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalarni rivojlanishining turli bosqichlarida psixologik-pedagogik tizim ta'sirini, nuqson sensor konsepsiyasini, ikkilamchi nuqsonlarning profilaktikasini amalga oshirish.

2. Logopsixologiya fanining rivojlanish tarixi

Qadimgi Rim pedagogi M.F.Kvintilian o'zini "notiq tarbiyalovchi" kishi deb hisoblaganligi uchun ham bolaning nutqini o'zgarishiga, nutqda uchraydigan nuqsonlarga katta e'tibor berdi.

U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun kurashdi va shu sababli bolalarni uyda tarbiyalamoq uchun olinadigan enaga va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deb o'qtiradi. SHuningdek, Kvintilian musiqiy ta'lim berish masalasiga ham bolaning nutqini yaxshilash nuqtai nazaridan qaradi. Musiqa va tilni o'rganish talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni ifodali nutqqa aylantiradi, deb aytgan.

Bu ishlarda nutqning talaffuz tomoni, lug'at boyligi, grammatik tuzilishi, mantiqiy va tovush tomonlarini o'zgartirishga ta'rif berildi.

Bolaning psixik va ruhiy rivojlanishida nutqning ahamiyatini belgilash og'ir.

Barcha psixik jarayonlar – idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, xulq-atvor nutq ishtirokida shakllanadi (L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.V.Zoporojets).

nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarda intellektual rivojlanish sur‘ati orqada qolishi mumkin. U atrofdagilar bilan kam muloqotga kiradi, shunga bog‘liq holda tasavvur doirasi chegaralanadi, tafakkurning rivojlanish tempi orqada qoladi. Shunday qilib nutqiy buzilish tahlili psixik rivojlanishning turli tomonlari bilan bog‘liqligi asosida nutqiy patologiyalar mavjud bolalarni o‘rganishga kompleks yondoshuv bo‘lishni tahlil etadi. Buni maxsus psixologiyaning tarkibi bo‘lgan logopsixologiya fani o‘rganadi. Logopsixologiya fanining rivojlanishini bir necha bosqichlari mavjud:

1. Klinik bosqich.

Nutqiy buzilishlar logopediya fanining tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan, nutqiy patologiyali bolalarni o‘rganish XIX-XX asrga to‘g‘ri keladi. Nutq nuqsoni mavjud bolalarni o‘rganish terminologiyasi turli bosqichlarda turlicha bo‘lgan.

1920 yillarda Rossiyada og‘ir nutqiy buzilishlar nutqda paydo bo‘lgunga qadar “alaliya” termini bilan ifodalangan. CHet elda bu buzilish “rivojlanish afaziyasi”, “konstitutsional nutqning to‘xtashi”, “tug‘ma afaziya” (A.L.Kenton, F.Jilr, F.Koxar) deb nomlangan.

Nutq buzilishlarining dastlabki tasnifi A.Kussmaulning tipologiyasi hisoblanadi. A.Kussmaul nutq buzilishlari haqidagi noto‘g‘ri tasavvurga ega ekanligiga ko‘ra tanqidga uchragan. Bu tasnif XX asrning birinchi choragida chet el va rus tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida keng qo‘llangan (G.Gutsman, E.Freshels, S.M.Debragaev). Ular ilgari surgan tasniflarda umumiy jihatlar ko‘p edi (Klinik yondoshuv lotin va grek so‘z yasovchi elementlaridan tashkil topgan til tasnifi). Lekin tasniflar o‘rtasidagi farq buzilishlarni guruhlashda nomlash, qo‘llanayotgan ko‘rsatgichlar borasida ifodalangan.

Tasniflar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning tarkibidagi soddaliklar XX asr ilm-fan yutuqlari oldida yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi.

2. Pedagogik bosqich.

Rus olimlar M.E.Xvatsev, F.A.Rau, O.V.Pravdina, S.S.Lyapidevskiy va boshqa olimlar klinik tasnifga o‘zgartirishlar kiritadi. Natijada bir shaklga kiruvchi nutqiy buzilishlar haqidagi tasavvurlar ahamiyatga molik darajada o‘zgaradi.

Lekin o‘zgarishlar klinik terminologik apparatini o‘zgarishga olib kelmaydi. Tushuncha va terminlar tibbiyotda, logopediyada qo‘llangandek bir xilligicha qolaveradi.

Bolalarda nutqiy buzilishlar patologiyasi, tipologiyasi va tasnifi kattalar va bolalar nutq buzilishlari cheklanmasdan tasniflangan tipologiyaga asoslanishi dalillanadi. Bu tamoyillar R.E.Levina tomonidan asoslangan.

3. Psixologik bosqich.

Logopediyada nutqiy buzilishlar tasnifi pedagogik va psixologo- pedagogik va zamonaviy tasnifi sifatida o‘rganilgan.

Nutqiy va ruhiy rivojlanish o‘zaro bog‘liq bo‘lib, korreksion-pedagogik yordam berishda katta ahamiyatga egadir. A.Kussmaul, P.Mori, M.V.Bogdanov-Berezovskiy, R.A.Belova-David, E.A.Kirichenko intellektual rivojlanishida nutq nuqsonlari katta ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlab o‘tadilar.

Mualliflar, nutqiy doiradagi birlamchi buzilishlar intellektual darajaga, psixik rivojlanishning orqada qolishiga ta'sir ko'rsatadi, deb fikr bildirganlar.

Nutqiy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar nutqiy va psixologik buzilishlar R.E.Levina tomonidan tadqiq etilgan.

R.E.Levina nutq buzilishlarda bilish faoliyati buzilishi mavjudligini ko'rsatadi. Bu nuqtai nazar bir qator olimlarning ishlarida ham o'z aksini topgan (T.A.Vlasova, V.I.Lubovskiy, L.S.Svetkova, I.T.Vlasenko).

Ma'lumki, nutq murakkab funksional sistemani o'z ichiga oluvchi jarayondir. Bu sistemaning har bir tarkibiy qismi boshqa qismlar bilan bog'langan. R.E.Levina va uning shogirdlari L.S.Vigotskiyning nutq va tafakkur haqidagi ta'limotiga asoslanib, nutqni uch tarkibiy qismga bo'lib: fonetik-fonematik, leksik va grammatik vositalariga ajratib o'rganishni tavsiya etadi.

Logopsixologiya fanining nazariy asoslari L.S.Vigotskiyning tadqiqotlariga asoslanadi. Bu nazariyada "biron analizatorning nuqsoni yagona funksiya bo'lmay, balki butun faoliyatning buzilishiga olib keladi" degan fikr yotadi.

SHunday qilib, birlamchi nuqson, nutqiy tizimning shikastlanishi maxsus korreksion-logopedik yordamisiz, ikkilamchi va uchlamchi buzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin, bular:

- nutqning barcha tomonini rivojlanmasligi;
- sensor, fazoviy va boshqa tasavvurlarning etishmovchiligi;
- xotiraning chegaralanganligi;
- diqqat konsentratsiyasi va maqsadga muvofiqligining etarli emasligi;
- umumlashtirish darajasining pastligi;
- aqliy xulosa chiqarish darajalarining pastligi;
- sabab-oqibat aloqalarining etarli darajada bo'lmaganligi.

Bu xususiyatlar, bolaning kommunikativ malakasining rivojlanish darajasining etarli emasligi, boshqa odatlar muloqatga kirish va atrof muhitni o'zlashtira olmaslikka olib keladi.

O.N.Usanova, Y.F.Garkusha, N.T.Sinyakova kabi olimlar nutqiy patologiyasi mavjud bolalar diqqati xususiyatini tadqiq etganlar. Ularning fikricha bolalar diqqati barqarorligi, ixtiyoriylikning pastligi, o'z harakatlarini rejalashtirishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud ekan. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni maktabda o'qitishning ilmiy asoslarini R.E.Levina ishlab chiqqan G.A.Kashe, N.A.Nikitina, G.V.CHirkina, L.F.Spirova esa maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan logopedik mashg'ulotlar maqsad, mazmunini yaratganlar. (E.M.Mastyukova, T.YU.Filicheva, N.S.Jukovalar 1973) yaratdilar

Bir qator tekshirishlarda bolalarda nutq nuqsonlari masalasi turli tomonlaridan biri ko'proq yoritiladi. Masalan, nutq nuqsonlarida tovushlar talaffuzi, bo'g'in tuzilishi sistemasini o'zlashtirishlari R.E.Levina, G.A.Kashe, A.K.Markova, O.N.Usanova va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Nutq nuqsonlarida tilning lug'at tarkibi va grammatik tuzilishining o'ziga xosligi R.E.Levina, V.K.Orfinskaya, N.N.Traugot, S.N.SHaxovskaya, G.A.Volkova, V.K.Vorobeva, B.M.Nikitina, G.I.Gorenkova, T.B.Filicheva, G.V.CHirkina, A.V.YAstrebova, E.F.Sobotovitch, V.A.Kovshikov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilgan.

L.S.Vigotskiy nutqning harakatlarni idora qilish boshlang'ich bosqichi – bu egotsentik nutq bosqichi deb hisoblaydi. Chunki, bu davrda bola o'z hatti-harakatlarini, aynan shu harakatlarni ifodalovchi nutq bilan bog'laydi. YA'ni, nutq bolaning maqsadga yo'nalgan faoliyati bo'lib xizmat qiladi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar shaxsiy xususiyatlari O.S.Orlova, L.E.Goncharuk, L.M.SHipitsina, L.S.Volkova va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Logopsixologiyaning taraqqiyotiga B.M.Grinshpun, O.N.Usanova, I.T.Vlasenko, T.B.Filicheva, L.G.Soloveva va N.S.Jukovalarning ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

3. Logopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Logopsixologiya fani boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy buzilishlar korreksiyasi va profilaktikasi bilan shug'ullanish nutq buzilishlari simptomatikasini bilish, nutqiy faoliyat tizimida nonutqiy simptomlar aloqasini o'rganish uchun logopsixologiya boshqa fanlar bilan o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Bolalarni rivojlanish bosqichlarini psixik tomondan o'rganish bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya va logopediyani o'z ichiga birlashtiradi. Bolalar psixologiyasi bolalarda kechadigan, ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Bolalar psixologiyasi bolani boshqa shaxslar bilan muloqotga kirisha oladigan, mehnat qila oladigan shaxsga qay tarzda aylanishini ko'rsatib beradi. Logoped bolalarni psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda va farqlashda yuqorida bayon etilgan bilimlarga tayanishi lozim.

Logopsixologiya – maxsus psixologiyaning bir bo'limi, maxsus psixologiya esa umumiy psixologiyaning bir yo'nalishi, ya'ni sohasi, umumiy psixologiya psixikani tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini me'yorda o'rgansa, logopsixologiya esa ana shu qonuniyatlarning anomal rivojlanishini o'rganadi. Shuningdek, bu fanlarning aloqasi, o'rganish metodlari, tamoyillari, o'rganilayotgan holatlarni yagona tushunchalari, atamalari yordamida bayon etilishi bilan ham belgilanadi. Logopsixologiya pedagogika va uning bir bo'limi maxsus pedagogika, logopediya bilan bog'liq.

Ma'lumki, logopediya o'zining tamoyillarini shakllantirish, shuningdek ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishda logopsixologiya tomonidan o'rganiladigan bolalarni guruhli, yosh va individual xususiyatlari haqidagi bilimlarga tayanadi.

Pedagogik muammolarni mustaqil hal etish, pedagogik munosabatlarni kengaytirish, logoped bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga amaliy ta'sir etish sharti hisoblanadi.

Logopsixologiya tibbiy fanlar bilan ham bog'liq. Bu fanlar bir xil o'rganish ob'ektiga ega. Lekin bu fanlarning o'rganish predmeti farqlanadi. Logopsixologiya – nevrologiya, psixiatriya, fiziologiya fanlari bilan bog'liq. Nevrologiya, fiziologiya fanlari logopat bolalarning psixik rivojlanishi holatini yangi sifat nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi. Funksional sistemalar nazariyasini yaratilishi, bosh miya qobig'ining funksiyalarni lokalizatsiyasi haqidagi nazariyani ishlab chiqilishi, alohida ehtiyojlarga ega bolalarda oliy psixik funksiyalarni shakllanishi va rivojlanishi kamchiliklarini tahlil etishning yangicha usulini keltirib chiqdi.

Ichki va tashqi aloqalar o'zaro tafovutlanadi. Ichki aloqalarning surdopedagogika-tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, ona tili, matematikaga o'rgatish metodikasi, logopedik ritmika, umumiy va maxsus psixologiya bilan aloqalar kiradi. Tizimlararo aloqalarga tibbiy-biologik va lingvistik aloqalar kiradi.

Logopsixologiya otolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya fanlari bilan bog'liqdir. Bu fan ma'lumotlari ovoz buzilishlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu holatda ovoz buzilishlari halqum nuqsonlari asosida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Ko'p buzilishlar markaziy nerv sistemasi buzilishlari bilan bog'liq bo'lib, uning diagnostikasi logoped va vrach-nevrologning o'zaro faoliyati asosida mavjud bo'ladi.

Nutqiy buzilishlarda ruhiy rivojlanishning turli holatlari emotsional-irodaviy, xulqiy, diqqat, xotira, aqliy mehnat faoliyatining rivojlanishidan orqada qolishi kuzatiladi. Bu ma'lumotlar nutqiy buzilishni aniqlash va unga logopedik yordam ko'rsatishda muhimdir. Nutqiy buzilishlar miya faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bunda logopedik ish markaziy nevr tizimi faoliyatini stimullovchi dori-darmon orqali davolash bilan bog'liqlikda olib boriladi.

Duduqlanish, mutizm kabi nutqiy buzilishlar sababi psixik travmalar, qo'rqish, hayajonlanish sababli bo'lishi mumkin. Faqat psixonevrolog va logopedning o'zaro faoliyatigina bu jarayonni o'zgartirishi mumkin.

Logopsixologiya lingvistika va psixolingvistika bilan o'zaro bog'liqdir. Nutq turli til birliklari va qoidalarni qo'llashni ko'zda tutadi. Bu qonun- qoidalarni yaxshi bilish aniq tashhis qo'yish, uni to'g'ri korreksiyalash imkonini beradi va logopedik ish samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Logopsixologiya umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika fanlari bilan bog'liqdir. Logoped bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, psixologik-pedagogik tekshiruv metodlarini qo'llay olishi lozim.

SHunday qilib, logoped nutqiy buzilishlarning turli shakllarini ajratishi, intellektual, emotsional va xulqiy buzilishlar bilan bog'liq nutqiy buzilishlarga tashxis qo'yish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Psixologiya bilimlarini bilish logopedga faqat nutqiy buzilishni emas, balki nutqiy buzilishni ruhiy buzilishlar bilan bog'liqligini to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. Bunday bilim turli yoshdagi nutq nuqsoni mavjud bolalar bilan muloqotga kirishishga imkon beradi.

Nazorat savollari:

1. Logopsixologiya fanining predmeti maqsadi va vazifalarini sanab bering.
2. Logopsixologiya fanining shakllanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Logopsixologiya fanining tamoyillarini sanang.
4. Determinizm tamoyilining mohiyatini izohlang.
5. Logopsixologiya fanining tadqiqot metodlarini ko'rsating.
6. Logopsixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini qanday izohlaysiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya. –T.: O‘qituvchi 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshq. Maxsus psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so‘zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. -M. 2005
7. Kosyakova O.O Logopsixologiya. – M.: Feniks, 2007
8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005
9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya. – M.: Akademiya, 2006.

2-mavzu: nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning tavsifnomasi

(2 soat)

Reja:

1. Nutq buzilishining klassifikatsiyasi.
2. Nutqning lingvistik tavsifi.
3. Nutqning klinik tavsifi.
4. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar guruhining pedagogik tavsifi.

1. Nutq buzilishining klassifikatsiyasi

Nutq, faqatgina insonga xos noyob iste’dod bo‘lib, u yoki bu til orqali ong jarayonlari bilan bog‘liq muloqotni ta’minlaydi. Nutq funksiyasining miyadagi uyushishi XIX asrning o‘rtalaridan boshlab klinitsistlarning, neyrofiziologlarning va psixologlarning har tomonlama o‘rganadigan fani bo‘lib qoldi. Nutq mexanizmi to‘g‘risidagi birinchi ma’lumotlar P.Brok, K.Vernikening ishlarida paydo bo‘ldi. Nutq faoliyatini ta’minlovchi po‘stloq zonasining turli qismlarini bundan keyingi o‘rganishlar (Brok markazining) bosh miya chap yarim sharining (o‘ng tomon uchun) orqa qismidagi peshonaning burma-burma bo‘lib turgan joylarining motor funksiyalarini oldi olindi (lokalizatsiya qilindi), sensor tarafi esa (Vernike markazi) chakka chap qismining burma-burma bo‘lib turgan joylarining oldi olinishi (lokalizatsiya qilinishi) mumkin. A.R.Luriyaning neyropsixologiya asoslarida nutqni

tashkil etish funksiyalari har tomonlama yoritilgan.

Eshitish, ko'rish, harakat qilish analizatorlarining ustki va markaziy bo'limlarini shikastlanishi nutq patologiyasining oqibati hisoblanadi. Eshitish analizatorining ustki bo'limi jarohatlanganida og'zaki nutqning idroki zarar ko'radi, chunki eshitish fonematikasi buzilishi oqibatida sensor afaziyasi (yoki alaliya) paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ko'rish analizatorining turli bo'limlarini shikastlanishi yozma nutq idrokining buzilishida kuzatiladi. Harakat qilish analizatoridagi motor zonasining buzilishi talaffuzdagi kamchiliklarga olib keladi, chunki harakatlanuvchi (til, lab, yumshoq tanglay) artikulyasiya a'zolari va qimirlamaydigan (qattiq tanglay) hamda tovush yasovchi va nafas oluvchi (tovush pardalari, hiqildoq, o'pka, bronx, traxeya, difragma) a'zolari zarar ko'radi. Adabiyotlarda sanab o'tilgan nutqni harakatlantiruvchi analizatorning ustki bo'limi sifatida ko'rsatilgan.

2. Nutqning lingvistik tavsifi

Nutq turli ko'rinish va turlardagi murakkab psixik faoliyatdan iborat. U ekspressiv va impressiv nutqqa ajratiladi.

Ekspressiv (eslash) nutq – bu til yordamida o'z fikrini bayon qilish tashqariga yo'naltirilgan va bir qancha bosqichlardan o'tuvchi: g'oya – ichki nutq – tashqi o'z fikrini aytish.

Impressiv (idroki qilish) nutq – bu atrofdagilar nutqini tushunish (og'zaki yoki yozma) jarayon, hamda bir qancha bosqichlardan o'tadi: nutqiy xabarni idroki qilish axborot lahzalarini ajratish – idroki qilingan umumiy ma'nodagi sxemada ichki nutqni shakllantirish.

Nutq faoliyati mustaqil umumiy to'rtta turga ajratiladi, ulardan ekspressiv nutqga og'zaki va yozma nutq (xat kabi), impressiv nutqqa esa – og'zaki nutqni tushunish va yozma nutqni tushunish (o'qish) kiradi.

Og'zaki nutq – murakkab, ko'pqirrali jarayonni o'ziga qamrab oladi:

nutqning fonetik tomoni (nutqdan tovushni ma'noli ajralishi); leksik-

grammatik (so'zlar, iboralar, ma'lumotlar);

kuy-intonatsiyali (intonatsiya, ovoz);

temp-ritmik (nutq tempi va ritmi).

Dialogik va monologik nutq bo'lishi mumkin.

Mustaqil yoki aytib turib yozilgan va o'qish bo'lishi mumkin bo'lgan, og'zaki nutq asosida yozma nutq quriladi va rivojlanadi.

U yoki bu nutq komponentlariga ko'ra quyidagi lingvistik buzilishlarga bo'linadi:

1. Fonetik buzilishlar – bitta yoki bir nechta tovush guruhlarini noto'g'ri talaffuz qilish (shipillovchi, hushtakli, o'rta va orqa til tovushlari; undosh tovushlarning qattiq-yumshoqligini, karlik-jarangliligining buzilishi).

2. Leksik-grammatik buzilishlar.

Bu buzilishlarning orasi ajratiladi:

- cheklangan lug'at zahirasi;
- qashshoqlashgan ibora;
- iborada noto'g'ri tuzilgan so'zlar;
- noto'g'ri ishlatilgan kelishiklar va qo'shimchalar;

- chala gapirish, soʻzlarning joyini almashtirib gapirish.
3. Kuyi-intonatsiyali buzilishlar:
- urgʻuni notoʻgʻri ishlatish (soʻzda – grammatik, iborada – mantiqiy);
 - tovushning tembri, balandligi, kuchi bilan bogʻliq buzilishlar (tinch, boʻgʻiq, vaqillovchi, qisilgan, maʼnosiz, vizillovchi, past ovoz, modullashmagan).
4. Temp-ritmik buzilishlar:
- tezlashgan temp bosh miya poʻstlogʻida hayajonlanish jarayonlarining ustun kelishiga bogʻliqligi (taxilaliya);
 - sekinlashgan temp, tormozlanish jarayonlarining ustunlik qilishi (bradilaliya);
 - uziq-yuliy temp (asossiz pauzalar, tutilish, soʻz va tovushlarda urgʻuli boʻgʻinni aniq oʻqish tutilmasdan, tutqanoqsiz va tutqanoqlik koʻrinishidagi (duduqlanish).
5. Yozma nutqdagi buzilishlar:
- xatlar:*
- fonemani grafemaga notoʻgʻri qayta shifrlash;
 - chala yozish;
 - soʻzda harflarni tushirib qoldirish va aralashtirib yuborish;
 - gapda soʻzlarni qayta joylashtirish va kelishmaslik;
 - chiziqdan chiqib ketish va boshqalar.
- oʻqish:*
- tovushlarni almashtirish va aralashtirish;
 - harflab oʻqish;
 - soʻz tarkibida tovush-boʻgʻinni buzish;
 - oʻqilgan narsani tushunishning buzilishi;
 - agrammatizmlar.

3. Nutqning klinik tavsifi

Nutq rivojlanishi jarayonlarining bolalik davrida oʻng yarim shar ahamiyatli oʻrin egallaydi. Hozirgi paytda aytilayotgan nuqtai nazarlar shundan iboratki, bola nutqi paydo boʻlishining erta davrida etarlicha boʻlmagan tushunish va erkinlik nutq aktini tashkil topishi uchun, albatta oʻng yarim sharining faol ishtirokiga bogʻliq. Nutq vositalarini ongli va erkin shakllanishini qoʻllashda etakchi rolni nutq boʻyicha dominantlik qilayotgan miya yarim sharining (odatda, chap) boʻlinmalariga tegishlidir. (E.G.Smirniskaya).

Bolalik davrida nutq buzilishining alohidaligi ularda qaytarilish qobiliyatining borligidir, chunki bola miyasining yuqori darajada nafisligi (plastikligi) bilan bogʻliq.

Bolalik davrida kuzatilgan nutq buzilishlari fiziologik (bosh miyaning ustki (periferik) markaziy tarkibining etilish muddatiga bogʻliq va patologik (kasallangan) koʻrinishda boʻlishi mumkin.

Nutqning patologik buzilishi markaziy va ustki (periferik) buzilishining xarakteriga qarab organik va funksional qismlarga boʻlinadi.

Nutq buzilishining klinik turlari:

1) ustki xarakterdagi:

mexanik dislaliya – (artikulyasiya apparatining turli xil buzilishlari oqibatida tovush chiqarishning buzilishi); funksional dislaliya (artikullash funksiyasining buzilishi – artikulyasiya a’zolari qurilmasining saqlanishi oqibatida, noto’g’ri, noaniq artikulyasiya apparatining harakati);

rinolaliya – nutqning prosodiya tomoni va tovush chiqarishdagi buzilishlar, birinchi navbatda – alveolyar o’simta, milk, qattiq va yumshoq tanglay, labdagi yoriq (nezarameniya) ko’rinishidagi ovozlari, artikulyasiya apparatining tuzilishi buzilishini keltirib chiqaradi. Tovush chiqarganda havo oqimi faqat og’iz orqali emas, balki burun bo’shlig’i orqali ochiq o’tishi va yopiq, burun bo’shlig’idagi me’yoriy o’tishning adenoidlar, o’simtalar, burun suyagining qiyshiqligi, burunda surunkali jarayonlar oqibatida buzilishlarning ko’rinishi mumkin;

rinofoniya – nutq tovushlarining me’yoriy artikulyasiyasida ovoz tembrining buzilishi, fonatsiya jarayonida og’iz va burun bo’shlig’i ishtirokining muvofiqlashmasligini hisobga olinishi;

disfoniya – ovoz apparatining patologik o’zgarishlari oqibatida fonatsiyaning ishdan chiqishi. Yoki fonatsiyaning (afoniya), yo’qligi yoki ovozning (disfoniya) kuchi, yo’qligi yoki tembrning buzilishi ko’rinadi. Markaziy va ustki (periferik) xarakterdagi ovoz tashkil qiluvchi mexanizmning organik va funksional tartibsizliklarini keltirib chiqaradi;

2) markaziy xarakterdagi:

dizartriya – markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida tilning tovush tizimini buzilishi (tovush chiqarish, prosodiya, ovozlari). Dizartriya, ko’pincha talaffuz qilishning buzilishi bilan chegaralanmaydi, lekin nutqni tushunish va leksik-grammatik tomonlariga tegishli bo’ladi;

alaliya – bola rivojlanishining bachadonda homila yoki ilk davrida bosh miya po’stlog’ining nutq zonasida organik shikastlanish oqibatida nutqning yo’qligi yoki rivojlanmaganligi (nutq shakllanishiga qadar). Motor alaliyada murojaat qilingan nutqni qiyosiy saqlangan imkoniyatda tushunish uchun qiyinchiliklar shaxsiy nutqning rivojlanishiga tegishli bo’ladi. Sensor alaliyada buning teskarisi kuzatiladi: u yoki bu darajada, atrofdagilarning nutqini tushunish buziladi;

afaziya – bosh miyaning og’ir jarohatlanishi tufayli, shamollash jarayonlari va o’simtalar tufayli nutq zonalarini qamrab oluvchi ilgari bo’lgan nutqni to’la yoki qisman yo’qotish. Afaziya mexanizmi asosida nutq stereotipining yo’qolishi yotadi, shunga ko’ra talaffuz qilish ko’nikmalari yoki begona nutqni tushunish imkoniyatlari yo’qoladi. YOsh bolalarda (5-7 yosh) nutq buzilishi afaziya turidagi miya shikastlanishida bo’ladi va ko’proq nutq- eshitish xotirasiga tegishli bo’ladi (L.S.Svetkova);

disgrafiya, yoki agrafiya – yozuv jarayonining o’ziga xos, qisman yoki butunlay ishdan chiqishi. Gap tuzilmasi va tovush-bo’g’inlar tizimining buzilib ko’rinishida, harflarning optik-fazoviy obrazlari noaniq ko’rinadi. Bosh miya yarim shari chap qismining qaysi joyi shikastlanmasin orqa peshona, chakka, gardan – yozuv buzilishi mumkin;

disleksiya – (aleksiya) – bosh miyada gardan-chakka-tepa qismlarining rivojlanmaganligi oqibatida o’qishning qisman yoki butunlab buzilishi.

4. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar guruhining pedagogik tavsifi

Nutqida bir xil buzilishi bo'lgan bolalarni bir guruhga birlashtirilsa korreksiya ishlarini olib borish qulay bo'ladi.

Odatda, guruhlar quyidagi buzilishlarga qarab ajratiladi:

1) fonetik-fonematik buzilishlar (FFB, tovush talaffuz qilishdagi ko'pgina kamchiliklari bor bolalar bilan: funksional va mexanik dislaliya, rinolaliya, dizartriyaning engil ko'rinishi);

2) nutqning to'liq rivojlanmaganligi (NTR, turli darajadagi nutqning rivojlanmaganligi nutqida ko'pgina leksik-grammatik kamchiliklari bor bolalar bilan: dizartriyaning, alaliyaning, disleksiyaning va aleksiyaning, hamda disgrafiyaning va agraifiyaning murakkab ko'rinishlarida);

3) kuyi-intonatsiya kamchiliklari (rinofoniya, disfoniya, afoniya) va nutqning temp-ritmik buzilishlari. (duduqlanish, poltern, taxilaliya, bradilaliya bilan).

4) Nutq rivojlanishining buzilishida tarbiya va atrof-muhitning noma'qul sharoitlari bilan bog'liqligi paydo bo'lishi kutiladi. Nutq shakllanishining jadal davrida psixik deprivatsiya uning rivojlanishini orqaga suradi. Agar bu faktorlarning ta'siri genetik moyillikka yoki qo'pol bo'lmagan serebral-organik kamchiliklarga mos kelsa, unda nutq rivojlanishining buzilishi turg'un xarakterga ega bo'ladi va nutqning to'liq rivojlanmaganligi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi odatda miyaning rezidual-organik shikastlanishi natijasidir (bu termin bilan ifodalangan holat tugallangan patologik jarayon natijasidir). Nutq rivojlanishining buzilishini asab- psixik kasalliklaridan (epilepsiya, shizofreniya va boshqalar) farqlashni bilish kerak. Intellektual kamchiliklari bor bolalarni nutqida patologiya ifodalangan bolalar bilan solishtirganda asosan markaziy asab tizimining organik shikastlanishi ko'rinishlari kuzatiladi–minimal miya disfunktsiyasi deyiladi (MMD).

Nazorat savollari:

1. Nutq haqida ma'lumot bering.
2. Logopsixologiya tushunchasiga izox bering.
3. Etiologiya tushunchasini yoritib.
4. Nutqning rivojlanish bosqichlarini aniqlang.
5. Nutq buzilishlarining qanday tavsifnomalarini bilasiz?
6. Nima uchun nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning klinik, psixologir va pedagogik tavsifnomasi bilish kerak?

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshq. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik

har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.

3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.

6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.

7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.

8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005.

9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

3-mavzu. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining xususiyatlari

Reja:

1. Diqqat haqida umumiy tushuncha.
2. Diqqatning rivojlanishi.
3. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi.

1. Diqqat haqida umumiy tushuncha

Diqqat – ayrim predmet va hodisalarning bir vaqtda boshqalardan chetga olishda eng yaxshi aksini ta'minlovchi inson ruhiy faoliyatining xususiyati.

Diqqatning asosiy vazifalari:

- ayni vaqtda psixologik va fiziologik jarayonlar kerakligini faollashtirish va okeraksizini to'xtatish;
- ehtiyojlariga ko'ra kelib tushayotgan ma'lumotni tashkiliy va maqsadli tanlab olishga yordam berish;
- bir xil ob'ekt yoki faoliyat turlarida psixik faoliyatning tanlanuvchi va uzoq bir erga to'planishini ta'minlash.

Inson diqqati besh xil asosiy xossalarga ega: turg'unlik, to'planganlik, yo'naltirish, taqsimlash va ko'lamlilik.

1. Diqqatning turg'unligi ma'lum bir ob'ekt, faoliyat predmetiga chalg'imasdan uzoq vaqt ichida qarash xususiyatida namoyon bo'ladi.

2. Diqqatning to'planganligi (qarama-qarshi xislat parishonlik) bir xil ob'ektlarga diqqatini qaratish va boshqalaridan ongida mavjud bo'lgan farqlarda namoyon bo'ladi.

3. Diqqatning yo'naltirilishi, qaratilishi uni bir ob'ektdan boshqasiga, bir faoliyat turidan o'zga turga ko'chirilishi sifatida tushuniladi. Diqqatning yo'naltirilishi funksional ravishda ikki xil turli yo'nalishdagi jarayon bilan bog'liq: diqqatning qaratilishi va bo'linishi.

4. Diqqatni taqsimlash uni etarli bo'shliqqa sochish (tarqatish), parallel ravishda bir necha faoliyat turini bajarish qobiliyatidan iborat.

5. Diqqat ko'lamligi odamning yuqori diqqatligida (ongida), bir vaqtda saqlanishga qobiliyatli ma'lumotning miqdori bilan aniqlanadi. Ma'lum belgilarga bo'lish mumkin bo'lgan ko'pgina diqqat turlari mavjud:

1. Predmet, faoliyat materialiga ko'ra:

- sensor-perseptiv;
- intellektual;

2. harakatlantiruvchi;

3. Yo'nalganligiga ko'ra:

- tashqi;
- ichki.

4. Aks ettirilgan (ta'sir qilingan) bog'liqlik va munosabatlar xususiyatiga ko'ra:

- emperik;
- nazariy.

5. Yetaklovchi analizatorga ko'ra:

- qarash;
- eshitish;
- kinestetik.

Bevosita diqqat xech narsa bilan boshqarilmaydi. Inson qiziqishlari va ehtiyojlariga to'g'ri keladigan ob'ektga qaratilgan diqqat bundan mustasno. Namoyon bo'ladigan diqqat-maxsus vositalar yordamida, masalan imo- ishoralar, so'zlar, ko'rsatish belgilari bilan boshqariladi.

Ixtiyorsiz diqqat-iroda ishtiroki bilan bog'liq emas. Ixtiyoriy diqqat – iroda orqali boshqarilishini o'z ichiga oladi.

Xissiy diqqat-hissiyot va sezish a'zolari tanlanuvchi ishi bilan bog'liq.

2. Diqqatning rivojlanishi

Diqqat sezilarli darajada yoshga ko'ra o'zgaradigan asosiy yuqori nerv faoliyati jarayonlari rivojlanishi darajasiga bog'liq.

Bola hayotining birinchi yilida qandaydir vaqt ichida u yoki bu predmet bilan shug'ullanishi mumkin, biroq bunda uning diqqati xali turg'un emas. Beixtiyor diqqat shakllanishining shu boshlang'ich davri shu bilan tavsiflanadiki, bola rang-barang narsalarni ko'rib, baland tovushlarni eshitib, vaqt o'tishi bilan yanada sust, sekin tanish bo'lgan qo'zg'atuvchilarga e'tibor berishni boshlaydi.

2 yoshga borib u narsalarni ko'rib chiqib, qo'li bilan boshqarib, uzoq vaqt ularda diqqatini to'lmaydi. Bu yoshda bolaning nutqqa ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgan ixtiyoriy diqqat belgilari yuzaga keladi.

3-4 yoshda bolalar ko'pgina predmet va hodisalar bilan qiziqishni boshlaydi, kattalarni diqqat bilan eshitadi, soatlab ular ishini kuzatadi va o'zlari o'z oldiga muayyan vazifalarni ko'yishga qobiliyatli bo'ladi. Ularning diqqati bir joyga to'plangan bo'lishi mumkin, biroq hali ham etarli darajada turg'un bo'la olmaydi.

Katta maktabgacha bo'lgan yoshda diqqat turg'unligi ancha olib boradi. Biroq bolalar hali uni yaxshi boshqara olmaydi. Ular uzoq vaqt qandaydir predmetni qidira olmaydi, diqqatini to'play olmaydi. Ixtiyoriy diqqat maktabgacha yoshda hali sust

rivojlangan va bolaning faoliyati uning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bular kattalar ishini bajarish hamda o'yin o'ynashdan iborat. O'yin uni kuzatuvchanlikka, muayyan qoidalarini bajarishga o'rgatadi, irodasini tarbiyalaydi.

Maktabdagi o'qish, bilimlarini egallash jarayoni – bularning barchasi kichik yosh o'quv yuzaga keladigan qiziqishlar natijasida, xususan o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish asosida rivojlanadigan beixtiyor diqqatning tezda o'sishiga yordam beradi. U nihoyatda materialning yorqinligi, uning ko'rgazmaliligi va aniqligi, bola hissiy sohasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

3. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi

Nutqi rivojlanmagan bolalar uchun diqqat-e'tiborning qator xususiyatlari xarakterli: o'zgaruvchanlik, erkin e'tiborning past darajadagi ko'rsatkichlari, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar masalani hal qilishda turli usul va vositalarni qidirib, shart-sharoit tahlilida qiyinlik bilan diqqat-e'tiborlarini to'playdilar.

Diqqat-e'tiborning erkinligini namoyon qilish farqida ta'sir etuvchining modalligiga bo'ysunishi ma'lum bo'ladi (ko'rish yoki eshitish): nutqida patologiyasi bor bolalarda ko'rish sharoitiga qaraganda vazifani so'z qo'llanmasi sharoitida bajarish uchun, diqqat-e'tiborini to'plash ancha og'ir. Birinchi marta, rangi, shakli, figuralarning joylashishiga ko'ra farq qilishda qo'pol buzilishlar bilan bog'liq xatolarning soni ko'pligi kuzatiladi.

NTR maktab yoshiga etmagan bolalarda faoliyat tezligining barqarorligi ish jarayonida intilishni pasayishiga olib keladi.

Nutqida patologiyasi bor bolalarda diqqat-e'tiborni nutq va amaliy harakat o'rtasida bo'lish, amalda bajarib bo'lmaydigan qiyin vazifa hisoblanar ekan. SHu bilan birga ular o'ydinlashtirish va ta'kidlash fe'lidagi nutq qarshiliklari ustun keladi, unda nutqi sog' rivojlangan bolalardagi kabi murakkab qarshiliklar kuzatuvidagi fe'lda va shu paytda bajarilayotgan harakatga bog'liq bo'lmagan qarshiliklar kuzatiladi.

NTR li bolalarda diqqat-e'tibor xatolari butun ish davomida qatnashadi va doimo mustaqil e'tibor qilinmaydi va yo'qotilmaydi. Xatolar fe'li va ularning o'z vaktida bo'linishi me'yordan sifatli farqlanadi.

Faoliyat ustidan nazoratning hamma ko'rinishlari (avvalgi, hozirgi, keyingi) tez shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo'ladi, shu bilan birga vazifa shartlarini tahlili bilan bog'liq bo'lgani uchun, ko'proqva nazoratning hozirgi turi qiynaladi (vazifani bajarish jarayonida). Keyingi nazorat (natijalar bo'yicha nazorat), uning ayrim belgilari asosan pedagogning qo'shimcha yordami orqali ko'rinadi: qo'llanmani takrorlash talab qilinadi, namunani ko'rsatish, aniq ko'rsatmalar va b. Nutqi rivojlanmagan bolalarning erkin diqqat-e'tiborining xususiyatlari chalg'itish xarakterida namoyon bo'ladi. Nutqi sog' bolalar uchun «tajriba o'tkazuvchiga» faoliyati jarayonida chalg'itishga intilish xarakterli (bolalar tajriba o'tkazuvchiga qarab, u yoki bu vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bajarishganini uning ta'siridan aniqlashga harakat qilishadi), nutqida patologiyasi bor bolalar uchun esa ko'pincha chalg'itishning quyidagi ko'rinishlari bo'ladi: «derazaga qaradi (atrofga)», «vazifa bilan bog'liq bo'lmagan harakatlarni amalga oshiradi». Nutqi og'ir buzilgan bolalarda

erkin diqqat-e'tiborning past darajadaligi ularning shakllanmaganligiga yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi (O.N.Usanova, YU.F.Gargusha).

Amaliy topshiriq:

“Ikki qismli kundalik” grafik organayzerini to'ldiring.

Quyida keltirilgan jadvalning birinchi qismida me'yorda rivojlangan bolalar diqqatining xususiyatlarini keltiring. Jadvalning ikkinchi qismida nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining rivojlanish ko'rsatkichlarini misollar asosida keltiring

Bolalarda diqqat xususiyatlarining namoyon bo'lishi	
Me'yorda rivojlangan bolalar	nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N. va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.
7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.
8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005.
9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya,

2006.

4-mavzu: Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar idrokining xususiyatlari

Reja:

1. Idrok – psixologik tavsif sifatida.
2. Idrokning shakllanishi.
3. Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining alohida xususiyatlari.

1. Idrok – psixologik tavsif sifatida

Idrok - bu axborotlarni qabul qilish va egallash jarayonlari tizimi bo'lib, organizmga uni o'rab turgan borlig'i va ob'ektiv mavjudligini ta'minlovchi yo'nalishdir. Qabul qilish xis qilish bilan birgalikda bilish jarayonida asosiy qism bo'lib, berilayotgan materialni xis qilishni ta'minlaydi.

Bilish jarayonining sharti sifatida, qabul qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga kelib, amaliyotda tekshiriladi. Bunday birga kelmaslik esa, qabul qilishni tekshirishda asosiy manba sifatida o'rin olishi mumkin, shuningdek yo'qolish-illyuziyalarda ham kuzatilish mumkin.

Qabul qilishning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular belgilangan shakllari bo'yicha birlashtiriladi.

1. Etakchi analizatorlar bo'yicha: ko'ruv, eshituv, teri-tuyish, xid bilish, kinestetik

2. Materiyaning mavjudligi shakliga ko'ra: atrof-borliqni idrok etish, vaqtni idrok etish, harakatlarni idrok etish

3. Ruhiy faollik mosligiga ko'ra: oldindan o'ylangan, oldindan o'ylanmagan

Insonda insonning psixolog xarakteristikasi singari uning xususiyatlari mavjud.

1. Aralash va umumlashtirish: predmet va hodisalarni idrok etar ekan, inson nimalarni idrok etayotganini tushunadi va anglaydi.

2. Predmetlilik: predmetlarning psixolog obrazlarini kishi obraz sifatida emas, balki real predmetlar sifatida anglaydi.

3. YAxlitlilik: borliqdagi predmet va hodisalarning alohida sifatleri va belgilari doimiy mustahkam bog'liqlikda bo'ladi. Idrokda predmet yoki hodisa komponentlari o'rtasida mustahkam bog'liqliklar ifodalanadi.

4. Tizimlilik: kishi turli ob'ektlarni ularning belgilarini mustahkam tizimga ko'ra anglaydi.

5. Tanlamoq: bir necha predmetlar va ko'rinishlar orasidan inson faqat bir nechtasinigina ajratib oladi, bu uning qanday faoliyatga qaratilganini, kerakli narsalar va qiziqishlariga bog'liq bo'ladi.

6. O'zgarmaydigan: xuddi o'sha predmetlar inson tomonidan o'zgargan sharoitlarda qabul qilinadi (turli xil yoritilishida, turli xil qarashlarda, turli

masofalarda). Lekin predmetlarning ob'ektiv xususiyatlari o'zgarmagan holda qabul qilinadi.

2. Idrokning shakllanishi

His qilishning shakllanishi – bolalarda qabul qilish jarayonining shakllanishi va predmetlar, o'rab turgan atrof borliq haqida tasavvurlarni xosil bo'lishi. Bola dunyoga kelganda xis qilish tuyg'ulari shakllanib bo'lgan bo'ladi. Lekin ularning normal funksiyasini atrof – borliqni qabul qilishlarini ta'minlab beradi.

His etish jarayoni to'g'ri shakllanishi uchun, maqsadga yo'naltirilgan xissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko'rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, ob'ektlarni eshitishni o'rgatish kerak, ya'ni unda qabul qilish harakatlarini shakllantirish kerak. Lekin predmetni tekshirish, ko'rish, paypaslash etarli emas. Bunda predmetni bir qancha belgilarini aniqlash bilan birga, ularni boshqa predmetlar bilan belgilarning munosabatlarini aniqlash zarurdir.

Buning uchun bolaga kerakli o'lchovlarni berish kerak, bunla bola nimani qabul qilayotganligini biladi. Bu xis qilishning asosiy tushunchalari bo'lib, tarixiy ko'rinishga ega bo'lib, qabul qilish jarayonida taqqoslashni ta'minlab beradi. Ularga geometrik shakllarning tartiblari, kattaliklarning shkalalari, og'irlik o'lchovlari, yuqori tovushlar qatori, ranglar jilosi, ona tilining fonetik tarkibi kiradi. YUqorida ko'rsatilgan hamma tushunchalar bola tomonidan o'z vaqtida egallangan bo'lishi zarur. Qabul qilish jarayonida bola asta sekinlik bilan ko'rish, eshitish, harakat, bilish obrazlarini orttirib boradi. Lekin bunda bola predmetlarning munosabati va belgilarini qabul qilish jarayonida, bu munosabatlar va belgilar so'zlar bilan izohlangan bo'lishi kerak. Bu esa predmetning obrazlari haqida tasavvurlarni mustahkamlaydi, ularni yana ham aniqlashtiradi. Agar qabul qilish obrazlari so'zlar bilan mustahkamlangan bo'lsa bir qancha vaqt o'tishiga qaramay bola tasavvurlarida uyg'otish mumkin. Buning uchun kerakli so'zga javob beradigan – birikmani aytish kifoyadir.

3. Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining alohida xususiyatlari

Idrok qilishning fonematik buzilishi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning hammasida belgilanadi, bunda nutq eshitish va nutq harakat analizatorlari orasidagi bog'liqlik bo'lmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi, tovushlarni eshitish orqali qabul qilishga ta'sir qiladi. (G.F.Cergeeva). Bunda har doim ham tovushlarni talaffuz qilishida buzilishlar va qabul qilishidagi buzilishlar uchramaydi.

Nutq nusoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonini rivojlanishiga o'z tasirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulyatsion apparati kamchiliklari asosida tovush talaffuz qilishdagi o'zgarishlar, ko'pgina almashtirishlar, artikulyatsion apparat o'z funksiyasini to'liq bajarmasligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o'rinda tasir qilib, uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi.

Bazida bunday bolalarda ba'zi-bir tovushlarni eshitib, ajratish kuzatilishi

mumkin, lekin bu tovushlar talaffuz etilishida to'sqinliklar bo'lmaydi, boshqa hollarda esa oson talaffuz etiladigan xuddi shunday tovushlar talaffuzida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. har holda bu erda nisbiylashtirilgan aniqliklar mavjud: qanchalik tovushlar talaffuzida ko'proq shakllansa, shunchalik tovushlarni eshitib, ajratish muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Qanchalik tovushlarni talaffuz qilishda tayanch kam bo'lsa, shunchalik fonetik namunalarni shakllanishiga sharoit bo'ladi. Fonematik eshitishning shakllanishi tug'ri manoda bolaning nutq tomonlarini hammasiga tasir etadi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'lik bo'ladi.

Ko'rish orqali qabul qilishni tekshirish ishlari bizga shunday xulosalar chiqarishni beradiki, nutqida nuqsoni bo'lgan maktab o'quvchilarida bu funksiya o'z normasida qoladi va ular obrazlarni yaxlitligicha idrok etadi. (E.M.Mastyukova). Tekshirishlardan ko'rinishicha, bor obektlarni va tasvirlarni ko'rib, bilish bu bolalarda normadagi bolalardan farq qilmaydi.

Vazifalar murakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo'ladi (predmetlar qo'yilgan holatda bo'lganida). Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar predmet obrazlarini belgilangan sharoitlarda belgilangan sharoitlarda belgilangan qiyinchiliklar bilan qabul qiladilar, qarorni qabul qilish vaqti cho'ziladi, bolalar o'z javoblariga ishonmay ikkilanadilar, tanishda xatoliklar belgilanadi, axborotlar ortgan sari predmetning belgilarini ajratish xam kamayadi.

Bu turga kiruvchi bolalar sog'lom bolalarga karaganda, nutqi bilan ajralib turib, ularga qaraganda oddiy yunalishli tushunchalarni tanlashadi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar figuralarni ko'rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar.

Kichik maktab yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'rib idrok etishini tekshirish jarayonida dizatriya, alaliya turidagi nutq buzilishlari o'ziga tegishli bo'lgan belgilari o'rganildi: Optik-atrof-muhitga tegishli bo'lgan belgilar, atrof-muhitga tegishli bo'lgan tasavvurlar, yuzga tegishli bo'lgan belgilar, barmoklar va og'iz orqali, taktil-harakat azolari orqali idrok etish (L.S.Svetkova, T.M.Pirxalayshvili).

Optik-atrof-muhitni idrok etishning buzilishi bosh miyasi organik jaroxatlangan bolalarda uchrashi ahamiyatlidir. L.Bender metodikasi buyicha o'rganish natijasida, kichik maktab yoshidagi bolalarda, nutq nuksoni bilan birga ular faoliyatida, xususan, rasm chizish jarayonida konstruksiyalar yasash jarayonida, grammatikani o'rgatish jarayonida, sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan ularda bu faoliyatlar pastligi kuzatilgan. Atrof- muhitni idrok etish jarayoni nutqi to'liq rivojlanishi orqada qolgan bolalar va alaliya bolalarda birmuncha yaxshiroq rivojlanadi.

Optik-atrof-muhitni idrok etish jarayonini buzilish darajasi, shuningdek boshqa idrok jarayonlari to'liq bo'lmashligidan ham shakllanmaydi, alohida atrof-muhitni tasavvur qilishning shakllanishi bu jarayonda ahamiyatlidir.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktab o'quvchilarini tekshirish jarayonida, bu bolalar xarflar belgilarga ega ekanliklari aniqlangan: ular qiyinchiliklar bilan xarflar yozishni egallaydilar, xarflarni tanimaydilar, bir-biriga quyish, xarflarni nomini aytish va taqqoslash jarayonida qiyinchiliklar kuzatiladi, grafik chiqarilgan, xatto bosma

shriftlarni betartib berilishida ayta olmaydilar. Bu bilan bog‘langan holda bolalar xat yozuvga tayyor emasliklari aniqlanadi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning atrof-muhitda mo‘ljallanishlarini jarayonida, shu narsalar alohida aniqlanganli, ular asosan “o‘ng” va “chap” tushunchalarini tartiblashtirishda qiynaladilar, obektning turar joyini aniqlashda, shuningdek ular o‘z tanalarida mo‘ljallanishni bilmaydilar. Atrof-muhitni idrok etish hozirgi vaqtda turli xil analizatorlarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish deb qaraladi. Bunda bosh miya qismlarining sog‘lom funksiyasiga katta ahamiyat beriladi. Asosan ko‘p tarqalgan nuqsonlar nutq maktablarining 1-sinfida va tayyorlov sinflarida o‘qiyotgan bolalarda uchrashi aniq tarqalgan holdir.

Idrok etishning buzilishi bolalarning rasmlarni chizishida saqlangan bo‘ladi: rasm va tasvirlar kambag‘alligi bilan ajralib turadi, detallar miqdorining kamligi, oddiyligi, soddaligi, murakkab emasligi, shuningdek optik-atrof-muhitni idrok etishdagi buzilishlarning miqdori xarakterlidir (alaliya bolalarda).

Lekin nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarda atrof-muhitni idrok etishning buzilishi belgilangan tartibdagi xarakterni kasb etadi, kompensatorlik vazifasi belgilanadi.

Atrof-muhitni idrok etishning buzilishi ayrim hollarda yozuv nuqsonlari bilan kuzatilishi mumkin (Disleksiya va disgrafiya) sanashning buzilishi, bu kabi holatlar nutq buzilishlarida kuzatiladi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, predmetlar orasidagi aloqalar, ular orasidagi faoliyati impressiv nutqning saqlanganligini bildiradi. Lekin ekspressiv nutqda bolalar og‘ir nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan holda, nutqiy muloqot vositalarini bu munosabatlarda notug‘ri ifodalaydilar. Bu ular tilda semantik tartibini saqlanganligi bo‘lmashligi bilan bog‘langandir.

Yuz belgilarini tekshirish jarayonida (Tara metodikasi bo‘yicha) bu buzilish (asosan og‘iz azolari muskullari bilan bog‘liq) tovushlarni talaffuz qilishdagi og‘ir nuqsonlar bilan bog‘langan bo‘ladi. Asosan, bu turdagi yuz belgilari-dizartriya va alaliya bolalarda uchraydi.

Taktil-harakat azolari orqali idrok etish va og‘iz nuksonlari umumiy metodikalar orqali tekshirilgan, shuningdek adabiyotlarda ham yozilgan bo‘lib, R.L.Ringel metodikasi yordamida, bolaga predmetning shaklini aniqlash beriladi, bu predmetlar esa og‘izga joylashtirilgan bo‘ladi. Ko‘pgina tasvirlangan nuqsonlar asosan qo‘pol, ekspressiv nutq buzilishlarida uchraydi. (ayrim hollarda alaliyada dizartriya bolalarda nutqning fonetik tomoni buzilganligida ko‘rinadi). Sezilarli buzilishlar taktil-harakat azolarida yuzdagi qo‘pol belgilar bilan bolalarda barmoqlarda belgilar topilmagan.

Turli xil dizartriya nuqsonli bolalarda, nutqi rivojlanishi orqada qolgan bolalarda ko‘rish orqali idrok etishning orqada qolishi va rivojlanishi birlamchi intellektual buzilishlari bilan birga ko‘rsatiladi va boshqa tadqiqotlar ishlari olib boriladi.

Nutqi buzilgan hamma bolalarda fonematik idrokning buzilishi, shubhasiz nutq-eshitish va nutq-harakat qilish analizatorlarining aloqasida kuzatiladi. G.F.Sergeevaning belgilashicha, dizartriya va rinolaliyada nutq-harakat qilish funksiyalarining buzilishi eshitishning idrok fonemasiga juda ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda tovushlarni talaffuz qilishning buzilishi va idrokning buzilishi orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunish kuzatilmaydi. Bunda tovush talaffuz qilishni va idrok qilishning

buzilishi orasidagi to'g'ri bo'ysunish hamisha ham kuzatilmaydi. SHunday qilib qator hollar talaffuzga qarshi qo'yilmaganlari o'sha fonemalarning eshitish bilan farqi kuzatiladi, boshqa hollarda esa talaffuz paytida ajraladigan fonemalar farqlanmaydi. SHunga qaramasdan bu erda aniq mutanosiblik kuzatiladi: talaffuzda qanchalik ko'p tovushlar soni ajralsa, o'shancha fonemaning eshitishdan farqi muvaffaqiyatli ro'y beradi. Talaffuzda qancha "kam suyanchiq" bor bo'lsa, fonematik obrazlarning shakllanishi uchun shunchalik sharoit yomonlashadi. Fonematik eshitishning rivojlanishi esa nutqning har tomonlama rivojlanishi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasidan tashkil topgan, bu esa o'z o'rnida bolaning umumiy rivojlanishiga sabab qilib olingan.

Agar nutqida kamchiligi bor maktab yoshiga etmagan bolalarda shu psixik funksiya o'z rivojlanish me'yorida orqada qolsa predmetning yaxlitligi obrazini etarlicha shakllanmaganligi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotlar bu bolalarda aniq ob'ektlarni va ularning tasvirini sodda ko'rish qobiliyati bilan tanib qolishni farq qilmasligini ko'rsatadi. Qiyinchiliklar vazifalar murakkablashganida kuzatiladi (shovqin ko'tarilgan holatlarda, narsalar bog'langan holatda bo'lsa tanib qolish). Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar predmet obrazini murakkab sharoitda muayyan qiyinchiliklar bilan qabul qiladilar: qaror qabul qilish vaqti cho'zilib ketadi, bolalar o'zlarining javoblarini to'g'riligiga ishonch hosil qilmaydilar, tanib qolishda xatolar belgilanadi. Narsalarning axborot belgilari kamayishi natijasida, tanib olingan xatolarning soni ko'payadi.

Bu toifadagi bolalar ko'pincha (etalonga tenglashtirish) perseptiv harakat bo'yicha etalonda qo'llanadigan mo'ljallangan vazifalarni oddiy turlaridan foydalanadilar, ko'pincha nutqi me'yordagi bolalardan farqli ko'rish qobiliyatining o'zaro munosabatida foydalanadilar. Nutqi rivojlanmagan bolalar shakllarni ularning turiga emas, balki rangiga qarab tenglashtirishni mo'ljallaydilar. Ko'pincha o'g'il bolalarning natijalari qiz bolalarnikiga qaraganda ancha past bo'ladi (L.I.Belyakova, YU.F.Garkusha, O.N.Usanova, E.L.Figeredo).

Ko'rish idrokini tadqiq qilishda (E.M.Mastyukova) kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishining to'xtab qolishi (NRT), dizartriya va alaliya xilidagi nutq buzilishida quyidagi gnostik funksiyalar o'rganilgan: optik- fazoviy gnozis, fazoviy tasavvurlar, yuz gnozisi, barmoq va oral stereognozi. Bolalar savodini chiqarishda optik-fazoviy gnozisni rivojlantirish zarur shartdir. Ko'p bolalar uchun miyaning organik shikastlanganligi ko'rsatilgan funksiyalarning buzilishi xarakterli hisoblanadi.

L.Benderning optik-fazoviy gnozis metodikasini o'rganish yordami natijasida, hamda nutqida patologiyasi bor bolalarni rasm chizish, konstruksiya qilish jarayonini va savod chiqarish faoliyatini kuzatish davomida aniqlanishicha, kichik maktab yoshidagi bolalarda bu funksiya me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlariga taqqoslanganda ancha past darajani tashkil etadi. Fazoviy idrokning rivojlanish dinamikasini kuzatish jarayonida aniqlanishicha, bu dinamikaning nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda qulayligi ko'proq, alaliyada esa qulayligi kamroq ekan. Optik-fazoviy gnozisning buzilish darajasi idrokning boshqa jarayonlarini ayniqsa fazoviy tasavvurlarning etishmasligiga bog'liq.

A.P.Voronova (1993) nutqi to'liq rivojlanmagan maktab yoshiga etmagan

bolalar ustidagi tadqiqotlarida qayd qilishicha, bu toifadagi bolalar ko'p hollarda harfiy gnozisning past rivojlanish darajasiga ega bo'ladilar: ular harflarni qoidali va silliq yozishni qiyinchilik bilan farqlaydilar, bir- birini ustiga qo'yilgan harflarni tanimaydilar, ularda grafik tomondan to'g'ri keladigan, harflar nomini atash va solishtirishda, va xatto bosma harflarning nomini atashda qiyinchilik kuzatiladi. SHunga ko'ra ko'p bolalar xat yozuvni egallashga tayyor bo'lmaydilar.

Ma'lum bo'lishicha nutqi rivojlanmagan bolalarning o'zi turgan joyni aniqlash xususiyatini o'rganishda ob'ektni joylashgan jo'yini bildiruvchi «o'ng tomon» va «chap tomon» tushunchalarini ajratib olishda qiynaladilar, hamda o'z badanining jo'yini aniqlashda, ayniqsa vazifalar murakkablashganda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Borliqni idrok qilish hozirgi vaqtda turli analizatorlar qo'shma faoliyatining natijasi sifatida ko'rilyapti. SHunga ko'ra miyaning tepa qismi me'yorda ishlab turishiga muhim ahamiyat qaratiladi.

E.M.Mastyukovaning ma'lumotlariga ko'ra, aniq fazoviy buzilishlarning ko'pchiligi nutq maktablarining tayyorlov va birinchi sinf bolalarida belgilanadi.

Fazoviy buzilishlar, ayniksa, odam suratini chizishda yaqqol ko'rinadi: tasvirlash qashshoqligi bilan, detallar sonining kamligi va oddiyliigi, hamda o'ziga xos optik-fazoviy buzilishlarning mavjudligi bilan ajralib turadi (alaliyali bolalarda). Biroq, nutqi buzilgan bolalarda fazoviy buzilishlar aniqlanuvchi jo'shqinlik, kompensiyali fikr bilan xarakterlanadi. Fazoviy buzilishlarda yozma nutq tartibsizligi qattiqligining ifodalanishini alohida o'rni borligi (disleksiya va disgrafiya), nutq tartibsizligida kuzatilishi mumkin bo'lgan hisobning buzilishi deb topildi. Amaliy- predmet faoliyatida fazoviy munosabatlarning muhit ko'rinishlari o'rtasidagi o'rnatilgan tadqiqotlar qobiliyatini va impressiv nutqda ularni tushunish qobiliyatlarining saqlanganligi ko'rsatilgan, lekin ekpressiv nutqda, nutqida og'ir patologiyasi bor bolalarda munosabatlarini aks ettirish uchun til vositalarini topa olmaydilar yoki noto'g'ri til vositalaridan foydalanadilar. Bu ularda saqlangan semantik dasturning til ko'rinishiga qayta kodlashtirish jarayonining buzilishi bilan bog'liq.

Yuz gnozisining tadqiqi (Tarde metodikasi yoramida) ifodalanish va bo'ysunish orasidagi yuz gnozisining buzilishini (ayniqsa, oral muskullari doirasida) va tovush talaffuzi buzilishlarining og'irligini ko'rsatadi. Yuz gnozisining ko'proq ifodalangan buzilishlari dizartriya va alaliyali bolalarga xos.

Oral va barmoq stereognozisining buzilishi rus adabiyotlarida ta'riflangan umumiy metodika asosida tadqiq qilingan. (A.R. Luriya va b.), hamda R.L.Ringel metodikasi yordamida, bolaga og'ziga solingan narsalarning shaklini aniqlash taklif qilingan. Olingan ma'lumotlarning tahlilida belgilanishicha, ekpressiv nutqi qo'pol buzilgan bolalarda oral stereognozning buzilishlari ko'proq belgilanadi (nutqning fonetik tomoni buzilishini ayniqsa, alaliyali va dizartriya bolalarda). Bundan tashqari oral stereognozisning ifodalangan buzilishlari yuz gnozisi qo'pol buzilgan bolalarda ham kuzatiladi. Nutqi buzilgan bolalarda barmoq stereognozisining buzilishi aniqlanmagan (E.M.Mastyukova, 1991).

Birlamchi intellektual buzilishlarning yo'qligida nutq rivojlanishining to'xtab qolishi bilan turli xil shakldagi dizartriya bolalarda ko'rish qobiliyatining va narsalar obrazini ko'rishning rivojlanishini orqada qolishini boshqa tadqiqotlar ham

ko'rsatadi (L.S.Svetkova, T.M.Pirxalayshvili). Bu tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, nutqi patologiyali bolalarda ko'rish doirasining buzilishi asosan obrazlarni qurishning qashshoqligi va farq qilolmaslik, ko'rish izlarining sustligi va mahkam emasligi, hamda predmetni ko'rish tasavvurining so'z bilan aloqasi mustahkamligi va aynanligining yo'qligi aniqlandi. Nutqida kamchiligi bor maktab yoshiga etmagan bolalar uchun ko'rish idrokining va narsalar obrazini ko'rishning va kam darajada ko'rish operativ xotirasining buzilishi ko'proq xos bo'ladi, ko'rish idroki intellektual kamchiligi bor bolalarda qo'pol buzilgan bo'lishi mumkin, garchi ko'rish idroki bu guruh bolalarida kamroq buzilgan bo'ladi.

Test topshiriqlari

1. Idrok bu ...
 - A) yo'q narsani his qilish
 - B) shaxs tevarak-atrofidagi voqealarni aks etishi
 - G) sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir
 - D) sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi
2. Sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turib, ongimizda bir butun holda aks etishiga ... deyiladi.
 - A) sezgi
 - B) idrok G) xayol
 - D) tafakkur
3. Tezligi, aniqligi, to'laligi - bu idrokning A)
 - xususiyati
 - B) harakat sifatleri
 - G) idrokning sifatleri
 - D) idrokning strukturaviyligi
4. Yo'q narsalarni idrok qilish bu ... A)
 - idrok
 - B) xayol
 - G) illyuziya
 - D) gallyusinasiya
5. Gallyusinasiya - bu ...
 - A) bor narsani noto'g'ri idrok qilish B) yo'q narsani idrok qilish
 - G) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi D) yo'q narsani noto'g'ri anglash
6. Idrok konstantaligi bu...
 - A) narsalar sharoiti o'zgarsada obrazi o'zgarmasligi B) shaxsning idrok qilish qobiliyati
 - G) vaqtni idrok qilish
 - D) harakatni idrok qilish
7. Illyuziya bu...
 - A) bir nimani his qilib anglash
 - B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

G) bor narsani noto‘g‘ri, yanglish idrok qilish D)

yo‘q narsani idrok qilish

8. Idrokning o‘ziga xos xususiyatlari qaysi qatorda ko‘rsatilgan? A)

predmetligi, yaxlitligi

B) strukturaligi

V) konstantligi, mantiqiyli G)

tanlanganligi

D) barcha javoblar to‘g‘ri

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O‘qituvchi, 1993.

2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.

3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so‘zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.

5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

6. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.

7. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.

8. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.

9. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vldos, 2005.

10. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

5-mavzu. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar mnestic faoliyatining xususiyatlari

Reja:

1. Xotira haqida umumiy tushuncha.

2. Nutq buzilishlarida xotira xususiyatlari.

3. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning xotirasini o‘rganish uslubiyatlari.

1. Xotira haqida umumiy tushuncha

Xotira – bu individ orqali tajribasining eslab qolinishini saqlanishi va kelgusida qayta tiklanishi. Xotiraga, shuningdek, unutish ham kiradi. Bu jarayonlar faoliyatda shakllanadi.

Materialni eslab qolish, hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to'planishi bilan bog'liq. Eslab qolinganni kelgusida qo'llash uchun qayta tiklashi zarurdir. Xotirada materialni saqlash, uning shaxs sifatida ishtirok qilishiga bog'liq. Faoliyatdan ma'lum bir materialni tushib qolishi uni unutishga olib keladi.

Muayyan belgilariga ko'ra, birlashadigan ko'pgina xotira turlari mavjud:

1. Etakchi analizatorlarga ko'ra:

- ko'rish;
- eshitish;
- sezish;
- hid bilish;
- ta'm bilish.

2. Predmet, faoliyat materialiga ko'ra:

- harakatlantiruvchi;
- hissiy;
- tasavvurli;
- og'zaki.

3. Eslab qolish davomiyligiga ko'ra:

- qisqa muddatli;
- uzoq muddatli;
- tezkor.

4. Ruhiy faollik shakliga ko'ra:

- ixtiyoriy;
- ixtiyorsiz;
- ixtiyoriydan so'ngi.

SHunday qilib, xotira – shaxs ruhiy hayoti birligi va butunligini ta'minlovchi muhim tavsiflardan biridir. Uning o'tmishdagi tajribasi saqlanib qolinishi deb hisoblash mumkin emas.

Xotiraning individual farqlari uning jarayonlari xususiyatida namoyon bo'ladi, ya'ni turli xil insonlarda eslab qolish va qayta tiklash qanday qilib amalga oshirilishida va aynan nima eslab qolinishida namoyon bo'ladi. Bu belgilar turli xil jihatdan har bir inson xotirasi unumdorligini tavsiflaydi.

Individual bo'lib eslab qolish tezligi, aniqligi mustahkamligi va qayta tiklashga tayyorgarlik hisoblanadi. Bu tavsiflar, shuningdek, yuqori nerv faoliyati turlari xususiyati, qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlari harakatchanligi bilan bog'liq.

Turli xil xotira turlari mavjud: ko'rgazmali – tasavvurli, so'zli – mavhum va oraliq. Bu turlar inson yuqori nerv faoliyati signal tizimlarining birinchi va ikkinchi turlari o'zaro nisbatiga bog'liq. Xotira u yoki bu turining ustunligi, xususan, inson hayoti va faoliyati shart – sharoitlariga bog'liq. Masalan: ko'rgazmali – tasavvurli xotira turi ko'pincha rassomlarda uchraydi.

Ko'rgazmali – tasavvurli xotira turi turli xil taassurotlarni eslab qolishda qanday analizator unumdorli bo'lishiga qarab farqlanadi. SHunga muvofiq harakatlantiruvchi, ko'rish va eshitish xotirasini farqlaydilar. Bu turlar alohida juda

kam uchraydi. Ko'p holda aralash turini uchratish mumkin: ko'rish – harakatlantiruvchi, ko'rish – eshitish, eshitish – harakatlantiruvchi.

Xotira tuzilishining tartibsizligi hukmron turga bog'liq. SHunday qilib, xotira hajmining buzilishi bosh miya yarim sharining disfunktsiyasiga, taqdim etilgan ma'lumotlarni tiklash tartibidagi qiyinchiliklar esa – o'ng yarim sharining disfunktsiyasi bilan bog'liq.

Inson o'z xotirasining muvofiq xususiyatlarini, uning unumdorligini oshirish uchun ishlatadi.

2. Nutq buzilishlarida xotira xususiyatlari

NTR bolalar xotirasi tadqiqotlari bilan G.S.Gumennaya, M.I.Belyajova, YU.F.Garkusha, O.N.Usanova va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Aniqlanishicha, bunday bolalar ko'rish xotirasi ko'lamida deyarli me'yordagidan farqlanmaydi.

NTR bolalarda mnestik funksiyalarni (xotirani) tadqiq qilishda ma'lum bo'lishicha, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan.

Dizartriya bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli istisno qilinadi. Bu bolalarda shu sohada past natijalar ifodalangan idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq (I.T.Vlasenko, 1990). Tadqiqotlar eshitish xotirasi hajmida katta turlanishini hamda shu funktsiyaning ba'zi umumiy pastlashishini ko'rsatadi. Bu bilan birga eshitish xotirasining darajasi nutq rivojlanishi darajasining pasayishi bilan pasayadi. SHunday qilib, nutq rivojlanishi to'xtab qolgan bolalarda ifodalangan tafovutlar og'zaki va ko'rish xotirasining hajmida kuzatilmaydi. A.R.Luriya va boshqalarning «10 ta so'z» metodikasi yordamida oldindan eslab qolishni tadqiq qilishda, nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar uchraydi: ular vazifalar sharoitida sekinroq mo'ljallanishadi va ularning natijalarini solishtirganda me'yordan pastroq bo'ladi.

Motor alaliya bolalar birinchi aytilgandan keyin (eshitib turib) faqatgina bir qancha so'zlarni qayta tiklaydi, bunda ular bir so'zni bir necha marta qaytarishi mumkin yoki yangi so'zlar aytadi (paramneziya). Og'zaki paramnezialar bu turga kiruvchi bolalar uchun o'ziga xos nutq fikrlash tizimini ichki o'zgaruvchanligini aks ettiradi. Paramneziyaga beriluvchanlik dizartriya bolalarga xos emas. Nutqida patologiyasi bor bolalar qo'yilgan xatolarini e'tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda surilishni tiklash bir xil past bo'lar ekan. Ular 10 daqiqadan so'ng 5 ta so'zni, keyingi kun – 1-3 ta so'zni tiklaydi. Motor alaliya bolalar uchun o'nta so'zning o'rtadagi qismlarini tiklash ayniqsa qiyin bo'lar ekan.

Xotiraning tadqiqoti shunday xulosa qilishga imkon beradiki, bu turdagi bolalarni me'yorda gapiradigan sog' bolalarga nisbatan solishtirganda eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi ancha pastlashgan. Bolalar tez- tez murakkab yo'l-yo'riqlarni eslaridan chiqarib qo'yadilar (uchta, to'rtta pog'onali), berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba'zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo'l-yo'riqni aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar (L.I.Belyakova, YU.F.Garkusha, O.N.Usanova, E.L.Figeredo, 1991).

Faoliyat tuzilishining buzilishi, yo'l-yo'rikni aniq bo'lmagan va qisqa - qisqa idrok qilish, faqatgina eshitish xotirasining pasayishi bilan emas, balki diqqat-e'tiborning xususiyatlari bilan ham bog'langan.

Qayta tiklashdagi yo'lga qo'yilgan xatolarni nutq buzilishiga ega bolalar odatda sezmaydi va to'g'irlamaydi. Kechiktirilgan qayta tiklash barcha bolalar toifasida bir xilda quyi (past) bo'lib chiqadi. Masalan: ular 10 daqiqadan keyin beshta so'zni, keyingi kunda bir – uchta so'zni qayta tiklaydi. Motor alaliyali bolalar uchun o'nta so'z o'rtasidagi so'zlarni qayta tiklash, ayniqsa, murakkabdir.

Xotira buzilishining tuzilishi dominantlik turiga bog'liq. Xotira ko'lami buzilishi bosh miyaning chap yarim pallasi disfunktsiyasi bilan, berilayotgan material tartibini qayta tiklashdagi qiyinchiliklar esa o'ng yarim palla disfunktsiyasi bilan bog'liq.

Bolalar ko'pincha murakkab ko'rsatmalarni unutadi, ba'zi belgilarini tushirib qoldiradi va harakatlar ketma – ketligini almashtiradi.

SHunday qilib, mazkur toifadagi bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi:

- Ko'rish xotirasi ko'lami deyarli me'yorga to'g'ri keladi, geometrik figuralarning esda qolishi bundan mustasno;

- eshitish xotirasi vazifaning umumiy pasayishi;

- kechiktirilgan qayta tiklashning quyi darajasi;

- mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi.

Ammo, bu turdagi bolalarda bor qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlangan bo'lib qoladi.

3. Xotirani o'rganish uslubiyati

Tezkor xotira.

Uslubiyat qisqa muddatli xotira rivojlanishi darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan.

Bolaga ko'rsatma beriladi: «Men har bir qatorda beshtadan bo'lgan o'n qator sonlarni o'qiyman. Sening vazifang – bu sonlarni o'qilgan tartibda eslab qolish, keyin bo'lsa xayolda birinchi soni ikkinchisi, ikkinchisini uchinchi bilan, uchinchini to'rtinchi bilan, to'rtinchini beshinchi son bilan qo'shish, olingan to'rtta yig'indini kerakli qatorga yozish».

Eslatma: metodikada qo'llanadigan qatorlar soni yosh xususiyatlariga ko'ra har qatorda to'rttadan son bo'lgan besh qatordan maksimalgacha o'zgarishi mumkin. Qatorlarni o'qish orasidagi vaqt yoshga ko'ra 15 – 25 soniya bo'lishi kerak.

Uzoq muddatli xotira.

Uslubiyat uzoq muddatli xotira rivojlanishi darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan.

Bolaga ko'rsatma beriladi: «Hozir men bir qator so'zlarni o'qiyman, sen esa, ularni eslab qolishga harakat qil. Tayyorlan, diqqat bilan eshit: stol, sovun, odat, vilka, kitob, palto, bolta, daftar, sut, shim». So'zlar qatori bir necha bor o'qiladi. Tekshiruv 10 daqiqadan keyin, uch kun amalga oshiriladi.

Interpretatsiya. Uzoq muddatli xotira koeffitsienti quyidagi formulaga ko'ra hisoblab chiqiladi: $S = V/A \times 100\%$, bu erda: A - umumiy so'zlar soni; V – eslab qolingan so'zlar soni; S – uzoq muddatli xotira koeffitsienti.

Juftlikni eslab qol.

Metodika mantiqiy va mexanik xotira rivojlanganlik darajasini o'rganish

uchun mo'ljallangan.

Ikki qator so'z beriladi. Birinchi qatordagi so'zlar orasida ma'naviy bog'lanishlar mavjud, ikkinchi qatorda esa bunday bog'lanish yo'q.

Tadqiqotchi o'rganilayotgan qatordagi o'ng juft so'zlarni o'qiydi (juftlik orasidagi vaqt – 5 soniya). 10 soniyalik tanaffusdan so'ng qatorning chap tomonidagi so'zlar o'qiladi, sinalayotgan bola esa eslab qolingan o'ng qatordagi so'zlarni yozadi.

Interpritatsiya (talqin). Mantiqiy xotira koeffitsienti $S1$ quyidagi formulaga ko'ra hisoblab chiqiladi: $S1 = A1/V1$, bu erda: $A1$ – birinchi qator so'zlari soni; $V1$ – eslab qolingan so'zlar soni.

Nazorat savollari:

1. Xotira tushunchasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
2. Xotira turlarining mohiyatini ko'rsating.
3. Xotira jarayonlari mohiyatini izohlang.
4. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishida xotira tasavvurlarining o'rnini qanday izohlaysiz?
5. Xotirani o'rganish uslubiylariga misol keltiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. -T.: O'qituvchi 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.
7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.
8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005.
9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

6-mavzu: Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkurining

xususiyatlari

Reja:

1. Tafakkur haqida tushuncha.
2. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning tafakkur xususiyatlari.

1. Tafakkur haqida tushuncha

Tafakkur – atrofdagi borliqni aks etishiga imkon beradigan inson bilish faoliyatini oliy shakli, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa va munosabatni o'rnatadi.

Tafakkurning asosiy vazifalari:

- umumiy o'zaro aloqalarni o'rnatish;
- muayyan sinf hodisalari turi sifatida aniq hodisalar mohiyatini

tushuntirish;

- bir xil guruh hodisalari xossalarini umumlashtirish.

Muayyan belgilarga kura birlashadigan fikrlarning bir necha turlari ajratiladi:

1. Shakliga ko'ra:

- ko'rgazmali – ta'sir kiluvchi;
- ko'rgazmali – tasavvurli;
- mavhum – tasavvurli.

2. Yangiligi va o'ziga xosligi darajasiga ko'ra:

- reproduktiv (qayta tiklovchi);
- produktiv (ijodiy).

3. Xal qilinadigan vazifalar tavsifiga kura:

- nazariy - amaliy;

4. Tuzilishiga ko'ra:

- diskursiv - intuitiv.

Tafakkur quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- tahlil kilish (xayoliy predmet, hodisa, holatlarni kislmlarga ajratish va tarkibiy belgi, kism, taraflarni aniklash);

- sintez (turli xil belgilar o'rtasidagi aloqani taqqoslash, qiyoslashni o'rgatishi);

- mavxumlashtirish (predmet asosiy xossalarini noasosiylardan ajratish);

- solishtirish (kandaydir ob'ektlarni takkoslash va ulardagi umumiy yoki farkli belgilarni ajratish);

- umumlashtirish (ikki yoki bir kancha takkoslash va umumiyisini ajratish).

Tafakkur o'ziga xos tuzilishga ega, unga quyidagilar kiradi:

- vazifa shartlarini tushinishi, tegishli belgilarni tahlil kilish, belgi va bog'liqliklarni ajratish;

- strategiyani ishlab chiqish;

- muvaffakiyatli bajarish usullarini qidirish (bajaruvchi boskich);

- javobni topish;

- boshlang'ich shartlar bilan natijalarni qiyoslash;

Tafakkur shakllari, tushinishi, to'g'ri uylashi, xulosa chiqarishi fikrni so'zlar bilan

ifodalash boskichlari:

- fikr, uy bildirish sababini aniqlash, bildirish sxemasini yaratish;
- grammatik tuzilishlarini faollashtirish – tashqi yopiq nutq orkali fikr bildirish.

2. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning tafakkur xususiyatlari

Bolalar psixik rivojlanishining boshqa tomonlari bilan nutq buzilishining chambarchas bog'liqligiga ular tafakkurining o'ziga xos ba'zi xususiyatlari sabab bo'ladi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni intellektning jalb etilmagan (noverbal) sharoitiga qarab uch guruhga ajratish mumkin (O.N.Usanova, T.N.Sinyakova):

1) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi ba'zi bolalarda me'yordagidan birmuncha farq qiladi. Bunda intellekt rivojlanishining shu o'ziga xosligi nutqdagi qiyinchiliklar bilan bog'lanmagan va ularga bo'ysunmaydi. Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, bu guruhni NTR li bolalarning 9% i tashkil etadi.

2) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi me'yorga mos keladi (27%),

3) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi me'yorning past chegarasiga mos keladi, lekin doimiy emasligi bilan xarakterlanadi: aniq paytlarda bolalar intellektning me'yordan pastligini ko'rsatishi mumkin. Foiz hisobida eng ko'p guruh – 63%.

Dj. Ravenning (M.A.Fotekova) rangli ilg'or matritsaning bolalar varianti yordamida aniq - obrazli fikrlashning xususiyatlarini o'rganishda topilgan edi, vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish bo'yicha kichik yoshdagi bolalar jamoasi xilma - xil va har xil guruhlar bilan ko'rsatilgan. Aniq vazifalarni bajarish natijalariga ko'ra ko'proq muvaffaqiyatli guruh nutq patologiyasi qo'pol bo'lmaganligi bilan xarakterlanadi (ovoz talaffuz qilishdagi kamchiliklar va grammatik qurilmaga egalik qilishning bo'shligi). NTR li 37% ga yaqin bolalar past darajani ko'rsatdilar. Nutq maktablarining 7% bolalarigina me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlariga o'xshab, bilish faoliyatlarining xususiyatlari bilan ko'rsatkichlarga yaqinlashadilar.

V.A.Kovshikov, YU.A.Elkin, motor alaliyali bolalarning tafakkurini tadqiq qilar ekan, bir nechta tushunchalarni chegaralab qo'ydilar: bilim – borliqni bilishda o'tgan zamon tajribasi natijalarida shakllangan majmuaviy to'plam (obrazlar, tasavvurlar, tushuncha), qaysiki, fikrlash operatsiyalari uchun manba bo'lib xizmat qiladi; psixik faoliyatning o'z - o'zini tashkil qilishi – bilish faoliyatini va uni boshqarishni faollashtirishga qaratilgan yaxlitlik bo'lib, tafakkur jarayonini oqishi va muammoli vaziyatlarni hal qilib berishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi; shaxsiy tafakkur - muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan jarayon.

Tadqiqot jarayonida quyidagi natijalar olindi: nutqi rivojlanmagan bolalarda bilimidagi kamchiliklar tafakkur jarayoni va natijalariga va o'z - o'zini tashkil qilishning buzilishiga ko'proq ta'sir qiladi. Ularda atrofdagilar to'g'risida etarli hajmda ma'lumotlar bo'lmaydi, borliqdagi predmetlarning xususiyatlari va funksiyalari haqida, hodisalarning sabab- tergov aloqalarini o'rnatishda qiyinchiliklar tug'iladi. O'z - o'zini tashkil qilishning buzilishida hissiyotli-iroda va motiv doirasidagi kamchiliklar sabab bo'ladi va psixojismoniy tormozlanish kamdan-kam to'xtab qolishi va vazifaga qiziqishning yo'qligi namoyon bo'ladi. Bolalar, ko'pincha, siz taklif qilgan muammoli vaziyatga uzoq vaqt qo'shilmaydilar,

yoki aksincha juda tez vazifani bajarishga kirishib ketadilar, lekin bunda vazifaning hamma xususiyatlarini hisobga olmasdan muammoli vaziyatni yuzaki baholashadi. Boshqalar vazifani bajarishga kirishadilar, lekin unga qiziqishlari tez yo'qoladi, xatto vazifa to'g'ri bajarilayotgan bo'lsa ham, ishni tugatmasdan ishlashdan bosh tortadilar. Bunda nutqi rivojlanmagan bolalarda fikrlash operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirish sharoiti qoidaga ko'ra, saqlangani o'z - o'zini tashkil qilishni tartibga solish va bilim zahiralari kengaytirilganligi ochib ko'rsatiladi.

Ularning yoshiga mos bo'lgan fikrlash operatsiyalarining rivojlanishi uchun to'liq ma'noda dastlabki shartlarni qo'lga kiritib, bolalar, aniq obrazli fikrlashning rivojlanishida orqada qoladilar, maxsus o'qitish jarayonisiz tahlilni, tozalashni, solishtirishni, turkumlashni, ortiqcha tushunchaning yo'qligi va qiyosiy natija chiqarishni qiyinlik bilan amalga oshiradilar. Nutqi rivojlanmagan bolalarda aniq obrazli fikrlashning kamchiliklari faqat ikkilamchi emas, balki birlamchi xarakterga ega bo'lishi mumkin, bu sharoitda ular bosh miya po'stlog'ining tepagardan qismining etarli emasligi shart qilinadi. Nutq nuqsoni og'ir ifodalangan darajadagi ko'pchilik hollarda nutq rivojlanmaganida aniq - obrazli fikrlashning shakllanmaganligi bilan bog'langan (T.A.Fotekova). Nutqi to'liq rivojlanmagan ko'p bolalar uchun fikrlashning rigidligi xos bo'ladi. (L.I.Belyakova, YU.F.Gargusha, O.N.Usanova, E.L.Figiredo).

Nutq maktablari bolalarining fikrlash nutqini tadqiq qilinganida (I.T.Vlasenko) quyidagi xususiyatlar, shaxsiy nutqning buzilishi bilan emas, balki o'zining psixologik mexanizmiga ko'ra nutq rivojlanmasligining tizimi bilan birlamchi bog'langanligi topildi. Predmet obrazi bilan so'zning ichki rejadagi nutq fikrlashini o'rnatish bu bolalarda nutq ko'rinishlarining fikrlash bo'limiga o'tishi yoki aksincha, ichki nutq mexanizmining shakllanganligini etishmasligidan buziladi (masalan, bilvosita esda qolish).

Me'yorda rivojlanayotgan sog' bolalarda faraz qilishni tadqiqot qilishga bag'ishlangan manbalarda, faraz qilish bilan nutqning uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. L.S.Vigotskiy: «Faraz qilishning rivojlanishini kuzatish bu funksiyaning nutq rivojlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi – deb yozgan. – Nutk rivojlanishining to'xtab qolishi faraz qilishning ham to'xtab qolishini boshlaydi».

V.P.Gluxovning tadqiqoti nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda faraz qilishning xususiyatlari haqida xulosa qilishga imkon beradi. Bu turdagi bolalar faraz qilishning samarali faoliyati bosqichida me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlaridan orqada qolishadi. Sinash uchun berilgan geometrik figuralarning rasmini tayyorlashda va vazifalarni bajarishning oxirida nutqida patologiyasi bor bolalarga nisbatan, nutqi me'yorda sog' bolalar o'rtacha 5 ta namuna ko'p rasm yaratishdi. NTR li bolalarda yaqin atrofdagi narsalardan namuna ko'chirilib 2,5 baravar ko'p rasmlar belgilandi, ularda shaxsiy rasmlarining qaytarilishi ko'proq qayd qilindi va topshiriqqa aynan bo'lmagan rasmlar ham bor. Nutqida patologiyasi bor bolalar uchun bir xillik va shtamplangan nusxa ko'chirish xos, ularning ishga kirishib ketishi uchun ancha ko'p vaqt kerak bo'ladi, bu jarayonda tanaffuslarning uzoq cho'zilib ketishi belgilanadi, faoliyatni kuchdan qolishi kuzatiladi.

Nutqi rivojlanmagan bolalarning bajargan rasmlari bo'yicha javoblari, tasvirlangan narsalarning qisqa-qisqa, oddiy nomlanishiga olib keladi yoki bo'lmasa

kalta gap ko‘rinishini oladi. Nutqi rivojlanmagan bolalarda (lug‘at boyligi kambag‘al, ibora nutqining shakllanmaganligi, agrammatizmlar va b.) ijodiy faraz qilishning orqada qolishi bilan bolalarning og‘zaki ijodi uchun jiddiy to‘siqlar yaratadi.

Noverbal aqlning idrok holatiga ko‘ra (O.N.Usanova, T.N.Sinyakova) NTRli bolalarni uch guruxga bo‘lish mumkin :

- nutki me‘yordan birmuncha farklanadigan bolalar;

Bunda akl idrok uziga xosligi nutkiy kiyinchiliklarga boglik emas va ularga emasdur. Mualliflar ma‘lumotiga kura , bu gurux barcha NTRli bolalarning 9% ini tashkil kiladi – me‘yorga to‘g‘ri keladi (27%);

- me‘yorning kuyi chegarasiga to‘g‘ri keladi, biroq noturg‘unligi bilan tavsiflanadi (muayyan paytlarida ular me‘yordan kuyi aql-idrok holatini ko‘rsatish mumkin). Biz foizga ko‘ra eng ko‘p sonli gurux (63%) .

Yoshiga yarasha bo‘lgan fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun to‘la darajada asosga ega bo‘lib, bolalar biroq, ko‘rgazmali tasavvurli fikrlash rivojlanishi orqada qoladi, maxsus ta‘limsiz tahlil, sintez, solishtirish, tasniflash, ortiqcha tushunchani chiqarib tashlash va o‘xshashlik bo‘yicha xulosa qilishni qiyinchilik bilan egallaydi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalardagi ko‘rgazmali – tasavvurli fikrlash kamchiliklari nafaqat ikkilamchi, balki birlamchi xususiyatiga ular bosh miya qobig‘i tepa-ensa qismlardagi kamchilik bilan shartlangan. Nutq to‘liq rivojlanganligida ko‘rgazmali-tasavvurli fikrlarni shakllanganligi ko‘p holda ifodalanganligi darajasiga ko‘ra nutq nuqsoni og‘irligi bilan bog‘langan (T.A. Fotekova). NTRli ko‘pgina bolalar uchun shuningdek fikrlash rigidligi xos, (L.N. Belyakova, YU.F. Garkusha, O.N. Usanova, E.L.Figeredo).

L.S. Vigotskiy ta‘kidlaganki, tushunchalarning ortiq darajada bo‘linishi hamda umumiylik me‘yori buziladi, so‘z ma‘nosidagi mavxumlik va aniqligi birinchi yo‘qolishi sodir bo‘ladi. So‘z ma‘nosi ortida turgan beixtiyor tafakkur jarayonlarining bilish va xususan tafakkur faoliyatida ixtiyoriy ravishda kechadigan tahlil qilish va sintez bilan boglikligi bejiz emas. Tafakkur qanchalik to‘liq rivojlangan bo‘lsa, shunchalik so‘z ma‘nosi to‘liqdir, ya‘ni tafakkur jarayonlari, so‘z ma‘nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog‘langan.

I.T.Vlasenko afaziya bilan kasallangan bemorlarda so‘z ma‘nosi tuzilishini taxlil qilgan. Turli xil verbal parafaziyalarning (so‘zli almashinuvlar) nutqni fikrlash buzilishi darajalari bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi logopadlarda – afaziklarda xali etarli o‘rganilmagan. Verbal parafaziklar belgilovchi va umumlashtiruvchi so‘z vazifalari qiyinchiliklarini kiritgan holda so‘z ma‘nolarini dolzarblashtirish qiyinchiliklari tufayli yuzaga keladi.

Motor afaziyali bemorlarda predmet nomi vazifasi uncha orqada emas, yoki saqlangan. YAnada yuqori tartibdagi parafaziya ustunligi aniqlanadi. (tushuncha – toifa borasida). Verbal parafaziya – bu tabiiy model, unda so‘z ma‘noviy tuzilishi o‘zgarishining turli xil darajasi kuzatiladi. Bosh ma‘noni belgini tanlashda tizimli nutkiy tafakkur jarayonlarining buzilishi izlanadigan so‘z ma‘nosining torayishiga olib keladi.

Nutq fikrlash faoliyat mexanizmi sifatidagi bunday jarayonlar xususiyatiga nutqiy fikrlashning muayyan turi – umumlashgan yoki aniq – hodisaviy turi to‘g‘ri keladi. So‘z ma‘nosi tizimi va nutq patologiyasi tizimlarining mana shunday o‘zaro

shartlangan o'zgarishi, me'yorlar kabi, tafakkur va nutq birligini asosli ravishda aks etadi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur tushunchasining mazmunini izohlang.
2. Tafakkur operasiyalarini ajratib ko'rsating.
3. Tafakkur shakllari nimalarda ko'rinadi?
4. Tafakkur sifatlarining mazmunini izohlang.
5. Tafakkurning turlarining mohiyatini izohlang.
6. Tafakkurdagi individual farqlar nimalarda ko'rinadi?
7. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkur tekshirish rejasini nimadan iborat?
8. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqini tekshirish rejasini tuzish va tekshirish nimadan iborat?
9. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkur va nutqini tekshirish metodikalari nimasi bilan o'xshash?

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.
7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.
8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005.
9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

**7-mavzu: Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib
boriladigan psixokorreksion ishlar
Reja:**

1. Korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari.
2. Psixologik korreksiya tamoyillari.
3. Psixologik korreksiyaning modellari.

1. Korreksion ishning asosiy yo'nalishlari

Korreksiya – to'g'irlash, yumshatish, hayotga moslashtirish, hayotda o'z o'rinlarini topishiga ko'maklashish.

Adaptatsiya – tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

Kompensiya – zararlangan, ishdan chiqqan bir a'zo funksiyasini boshqa a'zoning qisman boshqarishi, to'ldirish tushuniladi.

Bunday bolalar bilan o'tkaziladigan korreksion ish, birinchi navbatda hissiyot va irodalarni shakllantirish, atrofdagilarga ijobiy xulqli munosabatni rivojlantirishga qaratiladi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan dagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko'zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish nutqida kamchiligi bo'lgan da diqqatning turg'unisizligiga olib keladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan dagi diqqatning taqsimlanishi, o'tishining qiyinligi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining mo'rtligi asosida yuz beradi. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalardiqqatini tarbiyalab borishda ularning oliy asab faoliyatining tiplarini e'tiborga olish darkor.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarbilan olib boriladigan psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og'ishlarni to'g'rilashga yo'naltirilgan.

KORREKSION ISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI		
Rivojlanishning ijtimoiy holatini optimallashtirish	Bolaning yetakchi faoliyatini rivojlantirish	Ishga doir psixologik hosilalarni shakllantirish

Korreksion maqsadlarni qo'yish sohasida uchta asosiy yo'nalish farqlanadi:

1. Rivojlanishning ijtimoiy holatini optimallashtirish.
2. Bolaning etakchi faoliyat turlarini rivojlantirish.
3. Ishga doir psixologik hosilalarni shakllantirish.

Chet el psixologiyasida bola rivojlanishidagi qiyinchiliklar shaxsning ichki strukturasi buzilganda (Z.Freyd, M.Klayn va h.k.) yoki muhit buzilganligida, yoki ikkala sabab birlashganda yuzaga keladi, deb hisoblashadi. Korreksion ishning texnikasi va usullarining tanlanishi uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlarni konkretlashtirishda quyidagi qoidalarni qisobga olish lozim:

1. Korreksiya maqsadlari ijobiy shaklda tuzilishi kerak. Maqsadlar inkor so'zlari bilan tuzilmasligi shart, ularning ta'qiqlovchi harakterga ega bo'lishi nutqida kamchiligi bo'lgan ning rivojlanish imkoniyatlarini, tashabbuslarini chegaralab

qo'yishi mumkin.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladiga **psixologik korreksiya dasturlarini** tuzishda quyidagi **asosiy tamoyillarga** tayanish zarur:

1. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimliliği tamoyili
2. Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili
3. Kauzal ko'rinishdagi korreksiyaning ustivorligi tamoyili
4. Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili
5. Nutqida kamchiligi bo'lgan ning yoshga doir psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili
6. Psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarining kompleksliliği tamoyili
7. Korreksiyaga nutqida kamchiligi bo'lgan ning ijtimoiy muqitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili
8. Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyili
9. Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyili
10. Murakkablikka tadrijiy o'tish tamoyili
11. Berilayotgan materialning qajmi va murakkablik darajasini hisobga olish tamoyili
12. Materialning emotsional murakkabligi inobatga olish tamoyili.

13. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimliliği tamoyili har qanday korreksion ishda 3 ko'rinishdagi masala mavjudligini ta'kidlaydi, ya'ni 1) korreksion, 2) profilaktik va 3) rivojlantiruvchi. Bunda bola shaxsining har tomonlama rivojlanishidagi boqliqlik va notekislik borligini anglatadi. Tushunarliroq aytadigan bo'lsak, har qaysi bola rivojlanishning turli bosqichlarida bo'ladi, ya'ni: juda yuqori pog'ona - rivojlanish me'yorda, past pog'ona - rivojlanishda psixik qiyinchiliklar borligini anglatadi. Bunda notekis rivojlanish qonuniyati kelib chiqadi. Shaxsga doir taraqqiyotning ayrim jiqatlarini sustlashuvi nutq kamchiligiga ega bola intellekti rivojini ortda qolishi yoki boshqa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: bilish va o'qish motivlarining sust rivojlanganligini pirovard natijasida boladagi mantiqiy operasional intellekt ortda qoladi. SHuning uchun korreksion rivojlantiruvchi dasturlar masala va maqsadini aniqlaganda hozirgi kundagi dolzarb muammolar bilan cheklanmay rivojlanishning yaqin prog'nozlaridan ham foydalanish kerak.

Nutq kamchiligiga ega bola bilan o'tkaziladigan har qanday psixologik ta'sir faqatgina ortda qolgan bosqichni korreksiya qilishgagina qaratilgan bo'lmay, ortda qolishni oldini olishga, uyg'un rivojlanishga yo'l ochishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, korreksion rivojlantiruvchi dastur 3 ta vazifani bajarishi lozim:

Korreksion buzilish va ortda qolishni tuzatish. Profilaktik - buzilish va ortda qolishni oldindan aniqlash.

Rivojlantiruvchi - taraqqiyot mazmunini boyitish, optimallashtirishga qaratilganlik. Shu 3 ta dasturlarning birgalikda olib borilishi kutilgan natijalarni berishi mumkin.

2. Psixologik korreksiya tamoyillari

Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili amaliy defektolog ishi

sifatidagi nutqida kamchiligi bo'lgan ni rivojlantirish va unga psixologik yordam berish alohida, yaxlit jarayon ekanini aks ettiradi.

Kauzal ko'rinishdagi korreksiyaning ustivorligi tamoyili korreksiyaning ikki toifasi farqlanadi: simptomatik va kauzal. Simptomatik korreksiya mazkur taraqqiyot qiyinchiliklarining tashqi alomatlarini bartaraf etishga qaratilsa, kauzal toifadagi korreksiya mazkur muammolarni vujudga keltirayotgan sabablarni yo'q qilishga qaratiladi. Ikkinchi toifadagi korreksiya o'z ustivorligini yo'qotmasligi lozim.

Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili ning nazariy asoslari A.N.Leontev, D.B.Elkonin asarlarida ishlab chiqilgan. Uning diqqat markazida bolaning psixik taraqqiyotida faoliyatning alohida o'rni mavjudligi turadi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan ning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini nutqida kamchiligi bo'lgan ning psixik va shaxs rivojlanishining me'yoriy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarxususiyatlarini hisobga olish, uni o'z yo'lini o'zi belgilashiga yo'l ochadi.

Korreksiyaga nutqida kamchiligi bo'lgan ning ijtimoiy muqitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili nutqida kamchiligi bo'lgan ning psixik taraqqiyoti uning atrofida gilarining roli bilan belgilanishi mumkinligini e'tirof etadi. Bola o'z yonidagi kattalar bilan aloqador holda, birgalikdagi faoliyati orqali baholanadi. Zotan bola tevarak-atrofdagilardan ajralgan qolda emas, balki ular bilan birgalikda rivojlanadi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarga g'ri tashkil etilgan korreksiya ishlari natijasida jamiyatga integratsiya muhitida har bir bola ta'lim jarayoniga qaratilgan salohiyati pedagoglar tomonidan muntazam kuzatuv ostidadir. Bu bilan birga har bir bola ta'lim jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb etiladi. Bu jarayon sinfda kelib chiqish imkon darajasidan qat'iy nazar jamoa sifatida bolalarning ta'limga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi. Har bir bola pedagog ijtimoiy, ilmiy, madaniy ta'lim

Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyiliga ko'ra, avval defektolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar yaxshi samara beradi.

Murakkablikka tadrijiy o'tish tamoyilida korreksion ishlar tadrijiyligi nazarda tutilgan. Mazkur tamoyil nutqida kamchiligi bo'lgan ning o'zi bajarayotgan ishidan zavqlana olishiga va korreksion ishga uning qiziqishini orttirishga yordam beradi.

Berilayotgan materialning qajmi va murakkablik darajasini hisobga olish tamoyilida korreksion dasturni amalga oshirishda ya'ni materialning yangi qajmini berishdan oldin u yoki bu ko'nikma va malakalarni nisbatan shakllanganligiga e'tibor berish lozim.

Materialning emotsional murakkabligi inobatga olish tamoyiliga ko'ra o'tkazilayotgan o'yinlar, mashqulotlar, taklif etilayotgan material yaxshi emotsional fonni vujudga kelishiga yordam berishi kerak. Korreksion mashqlar ijobiy emotsional fon bilan yakun topishi maqsadga muvofiqdir.

3. Psixologik korreksiyaning modellari

Nutqida kamchiligi bo'lgan ga korreksion ta'sir etishdan avval aniq korreksion ta'sir etish modelini tuzish lozim. Ular quyidagilar: umumiy, tipik(odatiy), individual.

Korreksiyaning umumiy modeli - bu qar bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan

shartlar tarmoqidir, deydi. U insonning tevarak-atrof, uni o‘rab turuvchi dunyo qaqidagi farazlarini chuqurroq, qaqqoniy, kengroq bo‘lishiga, insonlar qaqida, ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o‘zgarishlar, ularning faoliyatlarini analiz qila olish, kuzata olishiga sharoit yaratadi. Korreksiyaning bu modelida nutqida kamchiligi bo‘lgan ning sog‘liqi, mashqulotning vaqti aniq belgilab olinadi.


Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli - amaliy qarakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi; qarakatlarning turli komponentlarini o‘zlashtirishga va turli qarakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.

Korreksiyaning individual formasi o‘z ichiga nutqida kamchiligi bo‘lgan ning o‘ziga xos bo‘lgan individual tomonlarini hisobga oladi - uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, o‘rgana olish qobiliyatlari kabi.

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishda standartlashtirilgan va erkin korreksion dasturlardan foydalanish mumkin:

1) Standartlashtirilgan dasturda korreksiyaning qar bir bosqichida materiallar, qatnashchilarga qo‘yiladigan talablar aniq belgilangan bo‘ladi.. Korreksion ishni boshlashdan avval defektolog material berilishida nutqida kamchiligi bo‘lgan ning kuchi va idrokini hisobga olgan bo‘lishi kerak.

2) Erkin dastur - bunda defektolog dasturni o‘zi tuzadi.



Maqsad va vazifalarining bosqichlarini, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishini o‘zi belgilaydi. Markazlashtirilgan ta’sir kompleks psixokorreksion bloklardan iborat. Har bir blok aniq metod va usullardan tashkil topgan.

Bular:

1. Diagnostik blok. Maqsadi: shaxs rivojlanishining differensial diagnostikasi, havfli faktorlarni aniqlash, psixokorreksion dasturlarning umumiy shakli.

2. Belgilovchi blok. Maqsad: o‘ziga bo‘lgan ishonchni, muloqotga kirishishga ishtiyoqni uyqotish, qo‘rquvni kamaytirish va o‘z qayotiga o‘zgarishlar kiritishga xoqish uyqotish.

3. Korreksion blok. Maqsad: Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalartaraqqiyotini optimallashtirish va garmonizasiyalash, salbiy taraqqiyot fazasidan ijobiysiga o‘tish, o‘zi va dunyo bilan qamoqang faoliyat o‘rnata olishga o‘rganish.

4. Korreksion ta’sirning effektivliligini baholovchi blok. Maqsad:

reaksiyalarning dinamikasi va psixologik mazmuniga baho bera olish o'z-o'ziga bergan bahoni barqarorlashtirish.

Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- korreksion ishning aniq maqsadini belgilash;
- korreksion ishning maqsadini konkretlashtirishga yordam beradigan vazifalarni aniqlash;

- ishni o'tkazish taktika va strategiyasini tanlash (individual, guruh yoki aralash);

- metodika va texnikani ishlab chiqish;
- korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash;
- uchrashuv kunlarini belgilab olish;
- vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat);
- korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun moqiyatini belgilab olish;
- korreksion ishda yaqin qarindoshlar qatnashuvini ta'minlash;
- korreksion dasturni boshlashda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash.

Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash quyidagi mezon bo'yicha aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning echilishi, barham topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi, korreksion effektivligi uzoq muddatdan so'ng, ish oxirida aniqlanadi.

Korreksion dastur muammoning butunlay qal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va echilishiga qar tomondan baho berilayotganiga qam qaraladi.

Masalan: Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtda uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy qis qilishi bilan belgilanadi.

Defektolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni qis etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan ning yaqinlari uchun esa, nutqida kamchiligi bo'lgan da paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir.

Korreksion mashqulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jiqatdan o'ylanganligi bilan qam boqliq. Mashqulotlar tugagandan keyin qam iloji boricha nutqida kamchiligi bo'lgan ning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish muloqotni yo'qotmaslik 1,2 oyda 1 marotaba uchrashi lozim.

Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa, shuncha tez samara beradi.

Psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari dolzarblashmoqda. Bu defektologning ta'sir eta olishi va korreksion ishning sifatligidandir.

Ishning samaraliligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida defektologlar turli metodlardan foydalanadilar.

Xatto bir metod har xil mutaxassisda turlicha natija beradi.

Ishning bahosini bu metoddan xabari bo'lmagan ekspert berishi zarur.

Defektologning tarbiyaviy-ta'limiy sifatini hisobga olish kerak.

Defektologning kasbiga bo'lgan qiziqishini hisobga olish zarur.

Guruhiy korreksion ishda defektologning professional bo'lishi katta aqamiyatga ega.

Psixokorreksion ishlarda Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarpsixologik ta'siridan so'ng quyidagilarga qarab baholanadi:

- ichki kechinmalarning sub'ektiv moqiyatining o'zgarganligi.

- ta'sir etgandan so'ng nutqida kamchiligi bo'lgan ning ijobiy tomonga o'zgarishi.

- psixologik ta'sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin. ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi.

Nazorat savollari:

1. Korreksion mashg'ulotning maqsadini ayting.
2. Korreksion yo'naltirish mashg'ulotining vazifalarini izohlang.
3. Korreksion mashg'ulotida qanday ish usullari va vositalaridan foydalaniladi?
4. "Kompensiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.

3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.

6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.

7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.

8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlado, 2005.

9. Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

8-mavzu. Nutqida buzilishlari bo'lgan bolalarning shaxs va shaxslararo

munosabati xususiyatlari (2 soat)

Reja:

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari.
3. Dizartriya shaxs xususiyatlari.
4. Alaliyada shaxs xususiyatlari.
5. Nutqning temp - ritm buzilishlarida shaxs xususiyatlari.
6. Sistemali nutq buzilishlarida shaxs xususiyatlari.

1. Shaxs haqida tushuncha

Shaxs haqida tarif berishganda, rus psixologi S.Y. Rubinshteyning fikrlariga to'xtalmoq kerak. Olimning ta'kidlashicha, odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlarga ko'ra individualdir. Odam o'z atrofida tilarga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, uning biror bir faoliyat bilan shug'ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shaxs odamning atrofiga bo'lgan munosabatlarini va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari uning dunyo qarashida, ishonchlarida va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanadi.

Demak, *shaxs* — bu onga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy- iqtisodiy formatsida yashaydigan, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan odam individir.

SHaxs tarkib totish uzoq, muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir.

SHaxs xususiyatlari ruhiy jarayonlarining kechishiga ta'sir etadi. SHaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruhiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. SHaxs xususiyatlari atrof-muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Masalan, ayrim odamlar atrof-muhitni oson va tez idrok etsalar, boshqalar esa atrof-muhitni eshituv, harakat va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar.

Ruhiy jarayonlarni kechishi va shaxsning ruhiy xislatlari va holatlariga oliy asab tizimining tipologik va temperament xususiyatlari (hol erik, sang vinik, fiegmatik, melanholik) ta'sir etadi, shuningdek, bu xususiyatlar insonning xulq-atvorida, odam faoliyati obrazida, xissiy-iroda jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarida aks etadi. Inson oliy asab tizimi faoliyatining tipologik xususiyatlari bir butun holda nomoyon etib, insonning o'ziga xos ichki dunyosini yoki xarakterini tashkil etadi.

Shaxs o'zini anglash xususiyatlariga ega. Katta yoshli odam atrofda xayotni bilish va bo'layotgan voqea-hodisalarni baholash bilan cheklanmay u o'zligini anglab, o'z xulqini, rejalarini, faoliyatini baholaydi. Shaxs o'z faoliyatini boshqarish xususiyatiga ega.

Agar bola bolalar jamoasida yashasa, unda o'z nuqsonini kompensiya qilish maqsadida o'zidan kichik yoshdagi bolalar bilan muloqat qiladi va ular ichida etakchi rolini o'ynaydi. SHuningdek ular o'z nuqsonlarini o'zlari bajara oladigan faoliyat xisobiga kompensiya qilishga harakat qiladilar.

Bu guruh bolalarida xissiy-iroda sohalarida ham kamchiliklar kuzatiladi. Ayrim bemorlarda bu kamchiliklar ruhiyatini emirishi, tormozlanganlik holati, qo'rquv, kayfiyatining tez-tsz o'zgarishi kabilarda namoyon bo'lsa, ayrimlarda ko'zg'aluvchanlikni ortishi, asabiylashganlik, yig'loqilik atrofda odamlarga va

muxmtga nisbatan norozilik xislatlarida aks etsa, yana boshqalarda atrofdagi voqea — hodisalarga va odamlarga befarqlik, (*apatiya*) irodasizlik kabi xislatlarda ko'zga tashlanadi.

Bu barcha kamchiliklarning asosini bosh miya ovoz a'zolarining buzilishlari tashkil etadi.

2. O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari

Ko'pchilik tadqiqot ishlari o'qish va yozuv kamchiliklarini xulq atvor me'yorlari bilan bog'liqligini alohida qayd etadi. Bu bog'liqlik bola maktabga borgandan so'ng, ya'ni o'zi bajara olmaydigan vazifalarga duch kelgandan so'ng ko'zga tashlanadi.

Ko'pchilik pedagoglar bu bolaning ish qobiliyatining sustligi, diqqatining tarqoqligi, darsda o'tira olmasligidan shikoyat qiladilar. O'qish va yozuv nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar kamchiliklarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Involyusiya (o'qishga qiziqishning yo'kligi, qo'rquv, sustlik, o'z-o'zi bilan bo'lish, asabiylik, tarbiyasizlik, ovqatlanish buzilishi, siydik ushlay olmaslik);

2) Faol kompensiya (qaysarlik, gapga kirmaslik, agressivlik).

Bir necha farzandli ota-onalar bunday farzandlarini boshqalari bilan solishtirib, ularga nisbatan qo'pol munosabatlarda bo'ladilar, bu esa bolalarning xarakteriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuningdek, ko'p ota-onalar farzandlarining bunday kamchiliklarida pedagoglarni ayblaydilar. Pedagog esa bunday kamchiliklarni ota-onalarning bolalar o'qishlariga nisbatan befarqligi deb karaydilar. Bola sekin asta maktab talablarini bajarmaydi, darslarni qoldiradi va unda salbiy xulq- atvor shakllanadi. Agar bolalar maktabni tashlab ketsalar, ular o'z xoxishlari bilan hech qachon kitob mutoola qilmaydilar va bu o'z navbatida salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Agar o'kuvchi kitob kam o'qisa, unda uning keyinchalik rivojlanishi, lug'atini boyishi va mustaqil ta'lim olish imkomiyatlari cheklanadi.

Bu bolalarning ichki nutqi sust rivojlanadi, bu esa tafakkurning zaiflashuviga olib keladi.

3. Dizartriyada shaxs xususiyatlari

Nuqsonli bolalar o'z nuqsonini qay darajada ekanligini anglash va uning oqibatlarini ko'ra bilish darajasiga ko'ra iztirob chekadilar. Intellekti va motorikasi qo'pol buzilgan bolalar ko'proq o'z nuqsonlaridan iztirob chekadilar.

Bolani o'z kuchiga ishonchsizlik tuyg'usi va xulqidagi o'zgarishlar ko'proq darajada bolaning nuqsoniga nisbatan ota-onalar va yaqin karindoshlarining munosabatlariga bog'liq. Ota-onalar bolaning o'rniga barcha ishlarni bajarishga harakat qiladilar va buning oqibatida bolada tobelik boqimandalik xislari uyg'onadi va u o'zgalar yordamisiz biror bir faoliyatni bajara olmaydilar. Bola o'z faoliyatiga extiyoj sezmaydi.

Ayrim hollarda ota-onalarda, atrofdagi odamlarda bolalarga nisbatan negativ munosabatlar shakllanadi.

Bolalar serebral falajida nutq nuqsonlarining darajalariga ko'ra sog'lom tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlari mumkin. Bunday bolalarni sog'lom aka —

ukalari bilan muloqoti ularga ijobiy ta'sir etadi. nuqsonli bolalar kamsitish, masxara qilishlarga juda ta'sirchan bo'ladilar va bularning barchasi ularning xulqlarida salbiy aks etishi mumkin.

4. Alaliyada shaxs xususiyatlari

Ko'p hollarda alaliyaning og'ir ko'rinishlari akli zaiflik bilan almashtiriladi, bunda nutq bilan birgalikda bolaning ruhiy rivojlanishi orkada qoladi. Agar bunday nutk nuqsoni oligofreniya bilan birgalikda kelsa, bolaning muloqotga kirishish faolligi etarlicha rivojlanmaydi.

Ijtimoiy muhit bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin. Notug'ri tarbiya ko'p hollarda bola bilan mulokotga kirishish uchun harakatlarining zoe ketishiga sabab bo'ladi.

Agar bolani yaqin kishilar tushunishga harakat qilishmasa bola bunga asabiylashgan holda javob qiladi va bu ayrim hollarda aqli zaiflik belgilariga o'xshab ketadi.

Agar bolaning yaqinlari uning barcha istak-xoxishlarini so'zsiz bajarishsa, nima demoqchi bo'lganini ko'zidan o'qigandek tushunsalar, bunday bolada nutqiy muloqotga extiyoj qolmaydi. Motor aloliyali bolalar xulq atvori o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- atrodogilar bilan muloqotga kirishishda yaqqol namoyon bo'lgan qiyinchiliklar, notanish vaziyatlarda tez-tez tormozlanishlar, yangiliklarga salbiy munosabatda bo'lish. SHuningdek bola xarakterida patalogik sifatlar, asabiylik holatlari rivojlanishi tez xafa bo'lish va kek saqlash kuzatiladi. Nutqiy rivojlanishi nutqiy faollikning etarli darajada emasligi sababli orqada qoladi.

Sensor aloliyali bolalar singari psixopatsimon belgilar xos emas. Bunday bolalar ko'pchilik hollarda qiziquvchan, o'quvli, ishchan bo'ladilar. Biroq kichik yoshdagi bolalarda va yangi sharoitga (bolalar bog'chasi, maktab) moslashishning dastlabki bosqichlarida xulq atvori va xissiy-iroda sohalarida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin (bir joyda o'tira olmaslik, qo'zg'aluvchanlik yoki uyatchanlik, tez tormozlanish, qaysarlik).

5. Nutqning temp - ritm buzilishlarida shaxs xususiyatlari

Odatda kichik yoshdagi bolalar, agar duduklanish juda kuchli bo'lmasa o'z nuqsonlarini anglab etmaydilar. Agar duduklanish biror bir hodisadan so'ng to'satdan yuz bersa, bunda bola bu holat va nutq muloqotining chegaralanishida qattiq ta'sirlanadi, tushkunlikka tushadi. Ayrim hollarda bola bunday vaziyatda umuman gapirmay ko'yadi va duduqlanishning birinchi belgisi mutizm bo'lishi mumkin.

Bola o'z nuksonini anglagach, odamlardan uzoqlashishga va nutqiy mulokotdan qochishga harakat qiladi.

Duduqlanishni davolashda va ikkilamchi nuksonni oldini olishda atrofdegilarning munosabati katta rol o'ynaydi. Ota-onalarning o'z farzandlariga duduqlanishi paydo bo'lish davrida muvafaqqiyatli yordam berishlari va uning nutkiy rivojlanishiga samarali tasir etish hollari kamdan-kam kuzatiladi. Ko'p hollarda ota-onalar bunday farzandlariga xaddan ziyot etiborli bo'ladilar. Ayrim ota-onalar duduqlanishga katta ahamiyat bermay, boladagi nutk, nuqsonini o'zlari bartaraf

etishga harakat kiladilar masaln: - bolaning nutqdagi xatolarini bolaga ko'rsatadilar va tug'ri nutqqa taqlid qilishni talab etadi. Buning oqibatida bola o'z nuqsonini yanada chuqurroq, anglab etadi. Bola to'g'ri gapirishga harakat qiladi. Bola qanchalik qiynalsa

Duduqlanish shuncha kuchayadi. Duduqlanuvchi bola o'zining diqqatini nutqiy nuqsonga qanchalik qaratsa, uni nutqi shunchalik yomonlashib boraveradi.

Ayrim ota - onalar duduqlanuvchi farzandlari bilan xuddi bemorlarga bo'lgandek munosabatda bo'ladilar. Ular bolalarning ko'ngillariga qaraydilar, xamdardlik bildiradilar. Bunda bolalarda nevroz rivojlanishi mumkin. Bola duduqlanish unga turli imtiyozliklar yaratganini tushunadi va bundan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Ayrim bolalar o'z nuqsonlarini turli harakatlar bilan berkitishga harakat qiladilar, lekin bu usul bilan duduklanishni bartaraf etish mumkin emas. Xatto nutqiy nuqson belgilari juda kam darajada namoen bo'lsa xam, ikkilamchi ruhny buzilishlar ortib boradi.

Duduqlanishni keltirib chiqaruvchi asosiy asab buzilishi - bu *logofobiya* **Logofobiya – nutqdan, muloqotdan qo'rqish ma'nosini bildiradi** Logofobiya duduqlanuvchining barcha shaxs xususiyatlariga tasir etadi va uning xulqida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Logofobiya bola ruhiyatiga shu darajada qattiq ta'sir etadiki, xatto duduqlanish bartaraf etilgandan keyin ham o'z asoratlarini qoldiradi.

Bolalar jamoasida duduqlanuvchi bola tengdoshlari tomonidan mas'hara qilinadi, xatto ular bunday bolalarni o'z jamoalaridan chetga chiqarib qo'yadilar. Duduqlanuvchi bola maktabga kelgach, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar va majburiyatlarini ortib borishiga moslasha olmaydilar. Ayrim hollarda maktab ma'muriyati, pedagoglarning qattiq qo'lligi tufayli duduklanishi kuchayishi yoki «yashirincha» duduqlanish yaqqol namoyon bo'lishi mumkin. SHuningdek, maktabda nutqiy faoliyatga qo'yiladigan talablar ortib boradi (matnni o'qish, savollarga javob berish).

Duduqlanuvchi bolani pedagoglar har doim ham tushunmaydi va shunga yarasha munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlar duduqlanuvchi va sinfdoshlari o'rtasidagi munosabatga ham salbiy ta'sir etadi.

Duduqlanuvchi bunday vaziyatlarga turlicha munosabatda bo'ladi. Ko'p hollarda bolalar bilimlari nuqsonlari xisobiga noto'g'ri baholanishi va shunga o'xshash sabablarga ko'ra o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadilar. Ular maktabni yomon ko'rib qoladilar, darslardan qochadilar, sinf jamoa hayotidan chetda qoladilar, xulqida qo'shimcha kamchiliklar kuzatiladi.

Ayrim duduqlanuvchi bolalar darsni bilmasliklarini nutqiy nuqsondan foydalanib berkitishga harakat qiladilar. Agar pedagog bolaning nutqiy nuqsoni haqida tushunchaga ega bo'lsa, unda bolaning javobini shoshirmasdan kutib turadi, duduqlanish holati o'tib ketgandan so'ng u o'z fikrini bayon etishga va bilimlarini namoyon etishga imkon yaratadi. Agar pedagog bola nuqsoni xaqida tushunchaga ega bo'lmasa, uning jim turishini darsni tayyorlamaganlik deb tushunib, uni noto'g'ri baholashi mumkin. Duduqlanuvchi bolalarga kek saqlash, xafsirash, gumonsirash, o'zgarishlarga ishonchsizlik kabi shaxs xususiyatlarida kamchiliklar va psixomotorikada buzilishlar kuzatiladi. Duduqlanishning gipperstenik shaklida

bolalarda asabiylashishning kuchayishi, qo'zg'aluvchanlik, xulqida gipperfaollik kuzatiladi.

Nevrosteniyaning gipostenik shakliga ega duduqlanuvchi bolalar umumiy holsizlik, ish qobiliyatining sustlashganligi va logofobiya bilan ta'riflanadi.

Taxilaliyali bolalar odatda o'z nuqsonlarini anglab etadilar, shuningdek, ularning nutqiy muloqotga kirishish imkonitlari cheklangan. Bunday bolalarga atrofdagilarning munosabatlari turlichadir. Bu bolalar tengdoshlari tomonidan kamsitiladilar. Ota-onalarning haddan tashqari qayg'urishlari va nutqiga nisbatan talablari uning xulqidagi salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu bolalarda taxqirlanish duduqlanish bilan birgalikda kechishi kuzatiladi.

Tayanch so'zlar:

Gippersteniya - asabiylashuvning ortishi, qo'zg'aluvchanlik, xulqning giperfaolligi.

Giposteniya - umumiy holsizlik tashabbuskorlikning pasayishi, uyatchanlik, ish qobiliyatiniig sustligi.

Logofobiya - nutqdan, muloqotdan qo'rqish.

6. Sistemali nutq buzulishlarida shaxs xususiyatlari

Alaliya – homiladorlik yoki bola nutqining ilk rivojlanish davrida bosh miya po'stlog'idagi nutq zonalarining organik jarohatlanishi natijasida nutqning rivojlanmay kolishi.

Sensor alaliyali bolalar bilan muloqotga kirishish qiyin bo'ladi. Hulq atvori o'ziga xos xususiyatga ega (qo'zg'aluvchan, xarakterlari impulsiv, o'z nutqiga tanqidiy qaramaydilar, bilish darajasi past bo'ladi). Xikoyani uzoq vaqt tinglay olmaydilar, mazmunini tushunmaganliklari uchun qiziqish yo'qoladi va tinglamay qo'yadilar. Bunday bolalarda tushunishning yo'qligi natijasida o'zlarining nutqlari ham buziladi. Uzoq xavotirlanish, baqirish, sakrash, o'ynash, taqillatish hollari kuzatiladi. Ayrim vaqtlarda bunday bolalar muloyim, uyatchan, o'z kamchiliklarini ma'lum darajada angelaydilar. Bolalar muloqot uchun imo-ishoralar, jestlar, mimikalardan foydalanadilar. Bunday bolalar musiqa tinglashni yoqtiradilar, tinchlik bolalarni tinchlantiradi, baland oxangda gapirishlar, baqiriqlar bolaga salbiy ta'sir qiladi.

Sensor alaliya bolalarning ayrimlari maxsus og'ir nutq kamchiliklariga ega bolalar uchun mo'ljallangan maktablarda yoki yordamchi maktablarda logoped bilan muntazam shug'ullangan holda ta'lim oladilar.

Afaziya – markaziy, organik turga oid og'ir nutq buzilishlari qatoriga kiradi. Bu ko'proq katta yoshdagi kishilardagi bosh miya qon aylanishining buzilishi oqibatida paydo bo'ladi.

Afaziya (grekcha a-inkor etish, prasis-nutq) bosh miyaning jaraxotlanishi natijasida ro'y beradigan nutqning to'la yoki qisman yo'qolishi.

Afaziyaning kelib chiqish sabablari yana bosh miya travmalari, shishlar, bosh miya infeksiya kasalliklari bo'lishi mumkin. Bu kasallik o'smirlarda, yosh kishilarda ham kuzatilishi mumkin.

Bolalarda bu kasallik kamdan-kam uchraydi. U ham bo'lsa, bosh miya

travmalari, shishlar yoki infeksiyon kasalliklar asoratida paydo bo'ladi.

A.A.Luriya ko'rsatishicha bunday bemorlarda psixik faoliyat va bilish jarayonlari buzilgan bo'lada. O'zgalar nutqini tushunish, og'zaki va yozma nutq kamchiliklari, hisob malakalari buzilishi kuzatiladi. Insult yoki travmadan so'ng boshlang'ich davrda bemorlarning nutqi umuman tushunarsiz bo'ladi. Chunki ularning nutqi ayrim tovushlar, bo'g'inlar, so'z birikmalaridan iborat bo'ladi. Bu kamchiliklar asosan ikki yo'nalish, tibbiy yoki logopedik yo'nalishlar asosida bartaraf etiladi. Lekin shu bilan birga bu davrda psixologning faoliyati muhim rol o'ynaydi. Chunki bu bemor o'z nutqidan uyaladi, tushkunlikka tushadi, diqqat, xotira, mantiqiy tafakkur, idrok, xissiy iroda sohalarida kamchiliklar kuzatiladi. Psixolog bunday bemorla bilan ko'proq suhbatlar o'tkazishi, treninglar, rag'batlantirish ishlari olib borishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang.
2. Indivud, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang.
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mohiyatiga nimalardan iborat?
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillarni aniqlang.
5. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini izohlang.
6. Nutq nuqsonlarida shaxs va shaxslararo munosabatlar qanday namoyon bo'ladi?
7. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
8. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxslararo munosabatga kirishish xususiyatlarini o'rganish boyicha qanday ma'lumotga egasiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutq // Xalq so'zi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
5. Kolesnikova G.I., Kabaruxina I.A. Spetsialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.

6. Spetsialnaya psixologiya. Pod. red. Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. – M.: 2005.
7. Kosyakova O.O. Logopsixologiya. –M.: Feniks, 2007.
8. Troshin O.V, Julina E.V. Logopsixologiya. –M.: Vlados, 2005.
- Kalyagin V.A., Ovchinnikova T.S. Logopsixologiya –M.: Akademiya, 2006.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI

1-MAVZU	LOGOPSIXOLOGIYa KURSINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI
----------------	--

Amaliy mashg‘ulotini olib borish texnologiyasi (2 soat)

Mashg‘ulot shakli	Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg‘ulot
Amaliyot rejasi	1. Logopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. 2. Logopsixologiyaning rivojlanish tarixi. 3. Logopsixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. 4. Nutqning rivojlanish bosqichlari.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: logopsixologiya kursining predmeti, maqsad va vazifalari bo‘yicha bilimlarni takomillashtirish	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyat natijalari
Logopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalarining mohiyatini tushuntirish.	Logopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalarining mohiyatini tushuntirib bera oladilar.
Logopsixologiyaning rivojlanish tarixi haqida tushuncha berish	Logopsixologiyaning rivojlanish tarixini aytib bera oladi
Logopsixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntirish.	Logopsixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntira oladi
Nutqning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha berish	Nutqning rivojlanish bosqichlarini tushuntira oladi
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish
O‘qitish metodlari	Bumerang (zig-zag), bahs- munozara
O‘qitish shakllari	Kichik guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash
O‘qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan

	ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Taqdimot, og'zaki savollar


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich (10 min)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Tinglovchilarni mashg'ulotdagi o'quv faoliyatni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova) 1.3. Kichik guruhlarini shakllantiradi va mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. (2-ilova).	Tinglaydilar va daftarga yozib boradilar Tinglaydilar. Topshiriqlar bilan tanishadilar va daftarga yozib boradilar
2 -bosqich Asosiy bo'lim. (70 min)	2.1. Dastlabki guruhlarini shakllantiradi va topshiriqlarni bajarish tartibini tushuntiradi: 1-guruh. Logopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. 2-guruh. Logopsixologiyani rivojlanish tarixi. 3-guruh. Logopsixologiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi. 4--guruh. utqning rivojlanish bosqichlari. 2.2. Topshiriq bo'yicha o'quv-didaktik materiallarni tarqatadi 2.3. Topshiriqni bajarish bo'yicha maslahatlar beradi. Kichik guruhlar faoliyatini nazorat qiladi	Kichik guruhlariga ajraladilar. Topshiriq ishlaydilar: o'quv- didaktik materiallarini tanlab oladi, mazmunini o'qib chiqadi va bahs munozara o'tkazadi.
	2.4. Keyingi kichik guruhlarini shakllantiradi va topshiriq beradi: Kichik guruhlar faoliyatini nazorat qiladi	Har bir dastlabki kichik guruh a'zolari keyingi kichik guruh a'zolariga 1-chi topshiriq bo'yicha galma-gal bir-biriga o'rgatadi
	2.5 Tinglovchilarni dastlabki kichik guruhga qaytaradi va topshiriq beradi: 1. Birinchi topshiriq bo'yicha taqdimotga tayyorlanish; 2. Taqdimotni tashkil etadi va o'tkazadi	Taqdimot materiallarni tayyorlaydilar va prezentatsiyani amalga oshiradi hamda savollarga javob beradi

3-bosqich. YAk un lovchi (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi, konspektlarni tekshiradi va baholanadi. 3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.	Savollar beradi
---	--	-----------------

Baholash mezonlari:

1.7-2,0 ball - «a'lo».
1.4 -16 ball - «yaxshi».
1.1-1.3 ball - «qoniqarli». 0-1,0 ball - «qoniqarsiz».



KICHIK GURUHLARDA ISHLASH



“Zig-zag” metodi

O'qituvchi tomonidan topshiriqlar ishlab chiqiladi.



Kichik guruhlar shakllantiriladi va topshiriqlar beriladi.



Kichik guruhlarga mavzu bo'yicha alohida matnlar tarqatiladi. Har bir ishtirokchi ushbu materiallarni puxta o'rganishi, uni boshqalarga tushuntira olishi kerakligini tushuntiriladi.



Kichik guruh ishtirokchilari topshiriqlar soniga mos holda raqamlab chiqiladi va har bir guruhdagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar va o'zlashtirgan bilimlarini sheriklariga galma-galdan o'rgatadilar.



